

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Mundarija

NIZOMIY NOMIDAGI

TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

TARIX FAKULTETI

«Himoyaga ruxsat etilsin»

Fakultet dekani

t.f.n. **TDPU**

2014 yil « **21** » **aprel**



5140600 «Tarix» ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Isomiddinov Ibrohim Shavkat o'g'lining

«O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq

tizimining takomillashuv tarixi»

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: «Tarix» kafedrasi dotsenti, tarix
fanlari nomzodi N.Rasulova

«Himoyaga tavsiya etilsin»

«Tarix» kafedrasi mudiri

t.f.n., dots **Z.A.Ilhomov**

2014 y. « **21** » **aprel**

TOSHKENT – 2014

KIRISH.....	3
I BOB. SUD HOKIMYATI DAVLAT HOKIMYATINING MUSTAQIL TARMOG'I SIFATIDA.....	7
1.1 Sud hokimyatining alohida tizim sifatida tashkil topishi hamda uning rivojlanish bosqichlari	7
1.2 Respublikada mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini isloh qilish borasida qabul qilingan meyoriy hujjatlar.	16
II BOB O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SUD-HUQUQ TIZIMI VAZIFALARI.....	25
2.1 O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilish jarayonida sud-huquq tizimining o'rni.....	25
2.2 Mustaqillik yillarida sud tizimining fuqarolar huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlari.....	33
3-BOB. MAVZUNI AKADEMIK LITSEY VA KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA O'QITISHNING TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODIK TAVSIYALAR.....	39
3.1 "O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini takomillashuv tarixi" mavzusi bo'yicha dars ishlanma	39
3.2. Mavzuni akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarida o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar.	49
Xulosa.....	53
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	57
Tayanch so'zlar lug'ati.....	62
Ilovalar	64

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallab o'z taraqqiyot yo'lidan bosqichma-bosqich ilgarilab bormoqda. Istiqlol yillarida mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida yuz bergan o'zgarishlar davlatning inson huquqini ta'minlash va rag'batlantirish borasidagi faoliyatida o'z aksini topmoqda.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari eng oliy qadriyat deb belgilangan. Bu konstitutsiyaviy prinsipni hayotga tadbiq etish yo'lida ko'plab ishlar amalga oshirildi. Sud-huquq sohasida olib borilayotgan islohotlar shular jumlasidandir¹.

Prezident I.A.Karimov "Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichidagi eng muhim yo'nalishlaridan biri, bu – qonun ustuvorigi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iborat"² deb aytib o'tgan.

Sobiq totalitar tuzum sharoitida hokimyatning bo'linish prinsipi bo'lmaganligi tufayli sud hukumron kompartiya iskanjasida qo'g'irchoqqa aylanib qolgan va ko'plab salbiy oqibatlar keltirib chiqargan edi³.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng dastlabki yutuqlardan biri Konstitutsiyada hokimyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimyatlariga bo'linishi prinsipining mustahkamlab qo'yilishi bo'ldi⁴.

Biz o'rganayotgan mavzuning dolzarbligi shundaki, barcha ijtimoiy munosabatlar qatori sud va odil sudlovga oid munosabatlar ham o'zgaruvchan, doimiy rivojlanishda bo'lib, takomillashib boradi. Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, sud hokimyatiga oid munosabatlar doimiy tahlil qilinib,

¹ Umarova Sh.O. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurishda sud hokimyatining o'rni. - T., 2005. - 3-b.

² Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Milliy davlatchilik, istiqlol mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida. - T.: IIV Akademiyasi, 1999. - 382-b.

³ Voxidov Z. O'zbekiston Respublikasida hokimyat bo'linishi prinsipining amaliy ifodasi. – T., 2000.- 66-b.

⁴ O'sha manba. 67-b.

o'zgartirilib, sud hokimyatiga oid nazariyalar necha asrlar davomida yaratilib mukammallashtirilgan bo'lsa-da, sudni biror davlatdan shundoqqina "ko'chirilgan andoza" bilan yaratib bo'lmaydi¹. Har bir davlatning sud hokimiyati umume'tirof etilgan umumiy prinsiplarga tayangan holda milliy davlatchilik asoslariga ko'ra shakllanadi va faoliyat yuritadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida, shuningdek, bir qator huquqshunos, tarixchi, siyosatshunos olimlarning ilmiy ishlari va tadqiqotlarida davlat va jamiyat qurilishi hamda boshqaruv tizimining shakllanishi va rivojlanishining asosi va muammolari, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi, sud-huquq tizimidagi islohotlar nazariy jihatdan chuqur asoslanmoqda, amaliy jihatdan umumlashtirilmoqda.

A.A.Azizxo'jayev, N.Jo'rayev, T.Fayzullayev, T.Odilqoriyev, A.Polvonzoda, B.Tajixanov, O.T.Husanov, V.A.Kostetskiylarning² ilmiy ishlarida bu mavzu yuzasidan qisman tadqiqot olib borilgan.

G'.Abdumajidov, K.Bahriyev, V.Mustafoev, A.Qurbonov, Sh.Shorahmedov³, ham ushbu mavzuga aloqador ilmiy maqolalar yozishgan.

Z.M.Islamov tadqiqotlarida sud hokimyatining davlat hokimyatidagi o'rni, sud va sud faoliyatining tashkiliy ta'minlanishi, O'zbekiston Respublikasida sud-huquq islohotlarini erkinlashtirish muammolari ham ilmiy asosda yoritilgan⁴.

¹ Umarova Sh.O. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurishda sud hokimyatining o'rni. - T., 2005. - 5-b.

² Azizxo'jayev A.A. Sovetlarning huquqni muhofaza qilish faoliyati. - T.: O'zbekiston, 1991; Jo'rayev N., T.Fayzullayev. Mustaqil O'zbekiston tarixi. 3-kitob. - T., 2009; Odilqoriyev X.T. O'zbekistonning yangi konstitutsiyasi va hokimiyatlar bo'linish prinsipi. - T.: O'zbekiston, 1993; Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. - T.: Sharq, 2000; Polvonzoda A. O'zbekistonda sud hokimiyati: islohotlar va boshqalar davri. - T.: Adolat, 2002; Tajixanov B. Inson huquqlari va huquqiy davlat. - T.: O'z.R.IV Akademiyasi, 1999; Husanov O.T. O'zbekiston Respublikasining davlat organlari. O'quv qo'llanma. - T.: Sharq, 1996; Husanov O.T. Davlat va huquq asoslari. Izohli lug'at. - T.: O'qituvchi, 1996; Husanov O.T. Qonuniylik - huquqiy davlatning negizi. Huquqiy demokratik islohotlar. - T.: O'zbekiston, 1997; Kostetskiy V.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Izohli lug'at. - T., 2004.

³ Abdumajidov G'. Sud-huquq islohoti - tarixiy zarurat // Hayot va qonun. 2000-yil. 5-6-son; Bahriyev K. Demokratiya va sud hokimiyati // Hayot va qonun. 1997-yil. 12-son; Bahriyev K. Sud hokimiyati va insonning odil sudlovga bo'lgan huquqi // Xo'jalik va huquq. 1999-yil. 2-son; Boboqulov S. Sudlar faoliyati boshqa davlatlar misolida // Hayot va qonun. 2000-yil. 11-12-son; Qurbonov A. Odil sudlovning mustaqil bosqichi // Hayot va qonun // 2001. 4-son; Shorahmedov Sh. Konstitutsiyaviy huquqlar va odil sudlar // Hayot va qonun. 2002. 6-son.

⁴ Исламов З.М. Проблема власти: ее понимание, назначение, социальная ценность. - Т.: ТГЮИ, 2003.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. BMIning maqsadi – O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimining takomillashuv tarixini ilmiy adabiyotlar, manbalar asosida tahlil qilish, o'rganish va tegishli xulosalar chiqarishdir.

Ana shu maqsadga erishish uchun quyidagi **vazifalar** belgilab olindi:

- sud hokimyatini alohida tizim sifatida tashkil topishi hamda uning rivojlanish bosqichlarini o'rganish;
- sud-huquq tizimini isloh qilish borasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish;
- O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilish jarayonida sud-huquq tizimining o'rnini o'rganib chiqish;
- mustaqillik yillarida sud tizimining fuqarolar huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarini o'rganish;
- mavzuni akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qitishning ta'lim texnologiyalarni ishlab chiqish va metodik tavsiyalar berish.

Tadqiqot mavzusining ob'yekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishining ob'yekti - O'zbekiston Respublikasida sud-huquq tizimi. Predmeti - O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimining takomillashuv tarixini o'rganish va tahlil qilish.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi. Tadqiqotni yozish, tahlil qilish, xulosalarga kelish da O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O'zbekiston Respublikasining yangi tarixini yaratish to'g'risida»gi (1996 yil 16 dekabr) va «O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutining faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi (1998 yil 27 iyul) qarorlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning asarlari, nutq va suhbatlarida O'zbekistonda sud-huquq tizimini shakllantirish va faoliyatiga oid fikr-mulohazalari, kontseptual g'oyalari, amaliy xulosalari metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Mavzuning amaliy ahamiyati. Mazkur bitiruv malakaviy ishidan “O‘zbekistonning eng yangi tarixi”, “Davlat va huquq nazariyasi”, “Konstitutsiyaviy huquq” fanlaridan kurs ishi, bitiruv malakaviy ishini yozish, shuningdek ma’ruza matnlari tayyorlashda qo‘shimcha manba sifatida foydalanish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 bob, 6 paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat.

I BOB. SUD HOKIMYATI DAVLAT HOKIMYATINING MUSTAQIL TARMOG'I SIFATIDA

1.1 Sud hokimyatining alohida tizim sifatida tashkil topishi hamda uning rivojlanish bosqichlari

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida yuz bergan o'zgarishlar o'z navbatida inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli o'zgarishlar qilinishini, ijtimoiy qadriyatlar ustuvorligini qaytadan ko'rib chiqish zaruriyatini taqozo etdi¹.

Qonunlarimizni isloh qilish borasidagi ishlar juda katta ahamiyat kasb etadi. Biroq islohotlar muvoffaqiyatli tarzda amalga oshirilishi va yangi qonunlar xohlaganimizdek natijalarga olib kelishi uchun bosib o'tilgan yo'lni to'la aniqlash va idrok etish, o'z tariximizni anglab yetishimiz lozim. O'tmish, bugungi kun va kelajak – bir-biri bilan chambarchas bog'langan mushtarak ildizlar bo'lib, biz tarixga qanchalik ko'p murojaat qilsak, bugun va ertaga nimalar qilishimiz kerakligini yanada ko'proq tushuna boramiz².

Sud hozirgi O'zbekiston hududida davlatchilikning bir belgisi sifatida ko'p asrlik tarixga ega. Uning qadim o'tmishda, bundan uch yarim ming yil ilgari, ya'ni davlatchilik shakllanishing dastlabki bosqichlarida qanday bo'lganligi to'g'risida, afsuski, ishonchli ma'lumotlar yo'q. Umuman olganda, O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati, turmushi, an'analari va ma'naviy negizlari umumiy tavsifga asoslanib shunday faraz qilish mumkinki, sudyalik vazifalarini obro'-e'tiborli, hurmatli, boy hayotiy tajribaga ega bo'lgan kishilar bajarishgan. Ular tomonidan jamiyatdagi nizoli, ziddiyatli holatlar yuzasidan chiqarilgan qarorlar har qanday shubhadan holi va majburiy deb e'tirof etilgan³.

¹ Umarova Sh.O. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurishda sud hokimyatining o'rni. - T., 2005. - 56-b.

² Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: “Adolat”, 2002. –5-b.

³ O'sha manba. 5-b.

O'zbekiston hududida qariyb o'n uch asr davomida shariat qonunlariga amal qilgan qozilik sudlari hamda xalq urf-odatlari va an'analari me'yorlari bo'yicha qarorlar qabul qilgan biylik sudlari mavjud bo'lgan.

O'n to'qqizinchi asrning ikkinchi yarmida (O'rta Osiyoni Rossiya imperiyasi bosib olganidan keyin) mustamlakachi chor hokimiyati bu yerda Rossiya imperiyasi qonunlariga ko'ra amal qiluvchi o'z sud organlarini ta'sis etdi. Bu sudlar dastlab Rossiya fuqarolari manfaatlariga daxldor fuqarolik nizolarini va jinoyat ishlarini ko'rib chiqishgan, keyinchalik jiddiy nizolar, shuningdek qonunga binoan ozodlikdan mahrum qilish, jazolash nazarda tutilgan jinoyatlar haqidagi ishlar ham ularning vakolatlariga berilgan¹.

Oktabr to'ntarilishi, shubhasiz, sud tizimiga ham ta'sir qildi. Xalq sudlari va tribunallar ta'sis etildi. Ular sovet hokimyatining ilk qarorlarida rasmiy ravishda ko'rsatilganidek, "proletarcha ongga" amal qilishgan. Ularga o'z faoliyatida agar "revolutsiya manfaatlariga" zid kelmaydigan bo'lsa, chor Rossiyasining qonunlarini qo'llash ham ruhsat etilgan edi².

Aytib o'tganimizdek, davlatchiligimizning boy tarixi 1917-yilga qadar uning hududida mustaqil sud hokimiyati faoliyat ko'rsatganligidan, xalq va davlat tizimining hurmat-ehtiromga sazovor bo'lgan bu hokimyat adolat va qonun posboni bo'lganligidan dalolat beradi. Ammo, sovetlar davrida odil sudlovning eski tizimlarini o'ylamay-netmay o'zgartirish, uni partiya va sovetlarga bo'ysundirish adolat sudini yo'qqa chiqardi³.

Sud totalitar tuzumining bir qismiga aylanib, 30-50-yillarda respublikamiz boshiga qirg'in keltirdi, uning o'n minglab asl farzandlarining umriga zomin bo'ldi. Qatag'onlar qoralanib, bunday bedodliklarga boshqa yo'l qo'yilmasligi va'da qilingan bo'lsa-da, odil sudlov tashqaridan qilinadigan tazyiqlardan himoya etilmadi, avvalgidek qaram va huquqsiz bo'lib qolaverdi⁴.

¹ Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: "Adolat", 2002. –5-b.

² O'sha manba. 7-b

³ Sud shunday hokimyatki // Yosh kuch jurnali. -1994-yil. - №1.

⁴ O'sha manba.

Shu boisdan hattoki 80-yillarda ham o'zbek xalqiga nisbatan qatag'onning yangi to'liqini avj oldirilganligi tasodifiy hol emas. Mash'um "Paxta ishi" bahonasida minglab aybsiz kishilar hibsga olindi. Gdlyan va Ivanovning jinoiy to'dasi ayollar va bolalarni ham ayab o'tirmay qamoqqa tashladi. O'shanda markaz tomonidan har taraflama do'mbira qilib chalingan "O'zbeklar ishi" to'g'risidagi uydurma paydo bo'ldi¹.

Ming bor shukurlar bo'lsinkim, mustaqilligimiz munosabati bilan respublikamiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan qo'llab-quvvatlabganligi sababli bu ishlar qayta ko'rib chiqildi, aybsiz hukm qilingan ming-minglab kishilar oqlandilar, qonuniylik tiklandi².

Sovetlar davrida qabul qilingan konstitutsiyalarning birontasida ham sud mustaqilligi, sud hokimiyati to'g'risida lom-lim deb og'iz ochilmaganligi tufayli xalqimiz mana shunday qatag'onlarga duchor bo'ldi³.

Yana shuni aytib o'tish lozimki, hokimyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokumiyatiga bo'linishi tamoyilining Konstitutsiyada mustahkamlab qo'yilishi mustaqillikning eng muhim yutuqlaridan biri bo'ldi. Faqat shunday umume'tirof etgan, tajribada sinovdan o'tgan demokratik yo'l bilangina odil sudlov lozim darajada amalga oshirilishi, Konstitutsiyaga va inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarga so'zsiz rioya etilishi, ijtimoiy adolat, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlash, qonuniylik va huquqiy tartibotning mustahkamlanishiga erishish mumkin⁴.

Shu bilan bir qatorda sud hokimyatining yangi tuzilmalari (Konstitutsiyaviy sud, xo'jalik va harbiy sudlar)ni yaratish ishlari ham olib borildi. Jamiyat hayoti gurkirab taraqqiy etdi. Barcha sohalarida tub islohotlar amalga oshirildi. Huquqiy davlatning mustahkamlanib borishi sud islohotni chuqurlashtirishni, odil sudlov tizimini demokratlashtirishni taqozo qildi.

¹ Sud shunday hokimyatki // Yosh kuch jurnali.-1994-yil. №1.

² Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: "Adolat", 2002. –5-b.

³ Sud shunday hokimyatki // Yosh kuch jurnali.-1994-yil. №1.

⁴ Vohiov Z. O'zbekiston Respublikasida hokimyat bo'linishi prinsipining amaliy ifodasi. – T.,2000.-12-b.

Davlat mustaqilligi e'lon qilingandan so'ng jamiyatda boshlangan demokratik tub islohotlar sudning davlat organlari tizimidagi o'rni va rolini mukammallashtirishni talab qilar edi¹.

Bugungi kunda sud hokimiyati davlat hokimyatining mustaqil tarmog'i ekanligi to'g'risidagi nuqtai nazar to'la qaror topdi. Sovet davrida, ayniqsa uning dastlabki bosqichida, bunday g'oya inkor etilgan edi. Sudning jazolovchi funksiyasi asosiy o'rinni tutar, sud amalda eng avvalo bosib turishga moslashgan davlat apparatining bir bo'g'ini bo'lib, uning muhofaza qilish funksiyasi haqida umuman gapirilmas edi. Faqat huquqiy davlat g'oyasining e'lon qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud hokimiyati davlat hokimyatining alohida mustaqil tarmog'i sifatida e'tirof etilgandan keyingina qonunlarda o'z aksini topayotgan muayyan nazariy baza yaratila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi oliy sudi Plenumi sud hokimiyati tushunchasiga birinchi marta quyidagicha ta'rif berdi: "Sud hokimiyati – bu sudlarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari ustuvorligi prinsipiga so'zsiz rioya qilish asosida jinoiy, fuqarolik, xo'jalik ishlarini va ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish bo'yicha vakolatlidir"².

Izoh tariqasida, shuni qayd qilish kerakki, Oliy sud Plenumi talqinida sud hokimyatining muhim funksiyalaridan biri – Konstitutsiyaning 108-moddasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga yuklangan konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshirish o'z aksini topmagan.

1992-yil 3-iyulda O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibida Harbiy hay'at ta'sis etildi.

Harbiy sudlar tizimi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunda belgilangan va Qonunning 39-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi harbiy sudlari tizimi

¹ Jumaboyev Q. Hokimiyatlar bo'linishi demokratik tamoyildir // Hayot va qonun. 1997-yil. № 4.- 61-b.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlarining to'plami. 1991-1997. – T.: Sharq, 1997. 5-7-betlar.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi harbiy hay'ati, O'zbekiston Respublikasi harbiy sudi, okrug va hududiy harbiy sudlardan iborat¹.

Inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan faoliyatni amalga oshiradigan sud hokimyatining shakllantirilishi, davlatda ijtimoiy barqarorlik va qonuniylikning ta'minlanishi, "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi, "Sudlar to'g'risida"gi Qonunlarning qabul qilinishi O'zbekiston Respublikasida sud islohoti ilk bosqichining asosini tashkil etdi².

Sud-huquq islohoti navbatdagi bosqichining vaziflari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimovning birinchi chaqiriq Oliy Majlisining VI sessiyasida so'zlagan nutqida aniq ifodalab berildi: "Sud islohotini chuqurlashtirish, hokimyatning uchunchi, mustaqil va qaram bo'lmagan tarmog'i sifatida butun sudlov odil tizimini demokratlashtirish – huquqiy davlatni mustahkamlashning yana bir muhim yo'nalishidir. Ijtimoiy turmushimizning demokratik institut tariqasida sudning ahamiyati jiddiy oshirilishi zarur.

Fuqarolarning qonuniy huquqlari va erkinliklarini himoya qilish sudlarning va huquq-tartibot organlarining faoliyatida asosiy mazmunga aylanmog'i kerak. Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatdan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim"³.

Prezident I.A.Karimovning tashabbusiga ko'ra 1997-yil 12-sentabrda birinchi marta O'zbekiston sudyalari qurultoyi chaqirildi. Qurultoyda O'zbekiston sudyalari Assotsatsiyasini ta'sis etish haqida qaror qabul qilindi, Assotsatsiya nizomi tasdiqlandi. Assotsatsiyaning eng muhim vazifasi – respublikada sud hokimyatining mustaqilligini ta'minlash deb qayd qilindi. Qonunlar loyihasini tayyorlashda qatnashish, Oliy Majlisga qonun loyihalari yuzasidan har taraflama yordam ko'rsatish, kasbiy-huquqiy ekspertiza o'tkazish va shu kabilar Assotsatsiyaning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Assotsatsiya sudyalikka

¹ Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: "Adolat", 2002. –64-b.

² O'sha manba.16-b.

³ Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Milliy davlatchilik, istiqlool mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida. - T.: IIV Akademiyasi, 1999. - 381-b.

nomzodlar tanlash va joy-joyiga qo'yishga faol ta'sir qilishi, sudyalar malakasini oshirish shartligi ko'rsatilgan¹.

Sud tizimi – davlat hokimiyati tomonidan ularga berilgan vakolatlar hamda ular oldiga qo'yilgan vazifa va maqsadlarning yig'indisiga asoslangan sud mahkamalaridan iborat².

Konstitutsiyaning 107-moddasi va “Sudlar to'g'risida”gi hamda “Konstitutsiyaviy sud to'g'risida”gi O'zbekiston respublikasi qonunlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati tizimi quyidagilardan tashkil topgan:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi;
- 2) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi;
- 3) O'zbekiston Respublikasi Oliy xo'jalik sudi;
- 4) Qoraqalpog'iston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha oily sudlari, fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyat va Toshkent shahar sudlari;
- 5) Fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari;
- 6) Jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari;
- 7) Harbiy sudlar;
- 8) Qoraqalpog'iston Respublikasi xo'jalik sudi;
- 9) Viloyat va Toshkent shahar xo'jalik sudlari.

Favqulodda sudlar tuzishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi raislari, rais o'rinbosarlari hamda sudyalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi tomonidan besh yil muddatga saylanadi. Ikki palatali parlament shakllantirilganidan keyin mazkur sud a'zolarini saylash bilan bog'liq bu vakolat Oliy Majlisning yuqori palatasi – Senatga beriladi³.

¹ Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: “Adolat”, 2002 .–17-b.

² Kostetskiy V.A.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Izohli lug'at. – T., 2004.-107-b.

³ Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: “Adolat”, 2002 .–48-b.

Konstitutsiyaviy sud – qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlarning hujjatlari O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasiga qanchalik mosligini tekshirib turish – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining asosiy vazifasidir, ya'ni chiqarilayotgan qonunlar va boshqa hujjatlar Konstitutsiya talablariga qanchalik javob bera olishini tekshirishdan iborat¹.

O'zbekiston Respublikasida dastlabki konstitutsiyaviy yurisdiksiya Konstitutsiyaviy nazorat qo'mitasi zimmasiga yuklangan edi. 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi konstitutsiyaviy sud ta'sis etish zaruratini belgilab berdi².

Oliy sud – fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarini yurgazish borasida O'zbekiston Respublikasi sud hokimyatining Oliy mahkamasi. Oliy sud tarkibi – Rais, uning birinchi o'rinbosari, o'rinbosari, sudlov hay'ati raislari, Oliy Sud sudyalaridan iborat bo'lib, Oliy sud Rayosati, Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati, harbiy hay'atdan iborat tarkibda ish olib boradi³.

Oliy xo'jalik sudi – xo'jalik nizolarini hal etish sohasida sud hokimyatining oliy mahkamasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 111-moddasiga muvofiq, mulkchilikning turli shakllariga asoslangan korxonalar, muassasalar, tshkilotlar o'rtasidagi, shuningdek, tadbirkorlar o'rtasidagi, iqtisodiyot sohasida va uni boshqarish jarayonida vujudga keladigan xo'jalik nizolarini hal etish Oliy xo'jalik sudi va xo'jalik sudlari tomonidan ularning vakolatlari doirasida amalga oshiriladi⁴.

“Sudlar to'g'risida”gi Qonunda Umumiy yurisdiksiya sudlari tizimi aniq belgilab qo'yilgan. Masaan, qonunning 1-moddasiga muvofiq mazkur tizim tarkibiga O'zbekiston Respublikasi fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha viloyatlar

¹.Kostetskiy V.A.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Izohli lug'at. – T.,2004.-98-b.

² Umarova Sh.O. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurishda sud hokimyatining o'rni. - T., 2005. - 85-b.

³ Kostetskiy V.A .O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Izohli lug'at. – T.,2004.-92-b.

⁴ O'sha manba.-92-b.

va Toshkent shahar sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman (shahar) sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman (shahar) sudlari, harbiy sudlar kiradi.

Harbiy sudlar – umumiy sudlarga o'xshash sud ishlarini olib boruvchi hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarida sud hokimyatini amalga oshirishga vakil qilingan sud hay'ati, shuningdek, harbiy xizmat ko'zda tutilgan qo'shinlar, harbiy jamlamalar va ijroiya hokimyat mahkamalarida ham faoliyat olib boradi¹.

Umumiy yurisdiksiya sudlari tizimida tumanlararo, tuman (shahar) sudlari asosiy bo'g'in hisoblanadi. Chunki ko'pgina fuqarolik va jinoyat ishlarini, shuningdek ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni birinchi instansiya tariqasida ko'rish ayni shu sudlar zimmasiga to'g'ri keladi. Har yili o'n minglab jinoyat va fuqarolik ishlari tumanlararo, tuman (shahar) sudlarida ko'riladi. Masalan, birgina 2000-yilning o'zida sudlar 50 mingdan ortiq jinoyat ishlarini va 90 mingdan ortiq fuqarolik ishlarini ko'rganlar².

Mamlakatimizda fuqarolik, jinoyat va ma'muriy sud ishlarini yuritish sohasida sud hokimyatining oliy organi hisoblangan Oliy sud faoliyatining asosiy qismi sudlov hay'atlari zimmasiga tushadi. Bu bo'linmaning tarkibini Oliy sud raisining taqdimiga ko'ra sud a'zolari orasidan Oliy sud Plenumi belgilaydi ("Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 17-moddasi)³.

Sudlov hay'ati birinchi instansiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi vakolatiga tegishli fuqarolik va jinoyat ishlarini uch sudyadan iborat tarkibda ko'radi. Masalan, 1999-yil oxirida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga saylov o'tkazilganda Oliy sud birinchi bosqich bo'yicha okrug saylov komissiyalari harakatlari ustidan berilgan shikoyatlar asosida 13 ta fuqarolik ishini ko'rib chiqdi. Bunday toifadagi ishlarning sud tarkibida hal etilishi o'tkazilgan saylovlar demokratik, oshkora va ochiq ekanligidan dalolat beradi⁴.

¹ Kostetskiy V.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Izohli lug'at. – T., 2004. - 92-b.

² Sudlar mustaqilligi – qonun ustuvorligi mezonini // Xalq so'zi. - 2002. 27-sentabr.

³ Polvonzoda A.A., Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: "Adolat", 2002. – 63-b.

⁴ Abdumajidov G'. Sud-huquq islohotlari – tarixiy zarurat // Hayot va qonun. - 2000-y.5-son. 67-b.

Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasida mamlakatimizda sud-huquq tizimini huquqiy davlatni shakllantirishning muhim tarkibiy qismi sifatida chuqur isloh etish va erkinlashtirish bo'yicha yangi konsepsiya hayotga tatbiq qilingani alohida ta'kidlandi. Sudlar ixtisoslashtirildi, fuqarolik va jinoiy ishlar bo'yicha alohida sudlar tashkil etildi, sudlar sud qarorlarini ijro etish bilan bog'liq o'zlariga xos bo'lmagan vazifalardan ozod qilindi¹.

Shunday qilib, sud islohotini amalga oshirish jarayonida sud vakolatlarida tub o'zgarishlar ro'y berdi: fuqarolik-huquqiy va jinoyat-huquqiy munosabatlar sohasida qonunlar va qonun osti hujjatlari bilan cheklab qo'yilgan taalluqlikning qoidasi bekor qilinib, dunyoda qabul qilingan andozalarga mos keladigan vakolatlar belgilandi².

Ana endi mustaqil O'zbekiston inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadri-qimmat va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanmish umuminsoniy prinsiplarga asoslanadigan huquqiy-demokratik davlat qurish bilan bog'liq aniq yo'lni tanladi. Konstitutsiyamizning 44-moddasiga binoan har bir kishiga buzilgan huquqlarini sud yo'li bilan himoya etilishi kafolatlangan bo'lib, har qanday huquqiy nizoni esa xolis va beg'araz sudda hal qilinishini, shaxsning huquqlari va davlatning manfaatlari faqat sudda huquqiy asoslarga ko'ra himoya qilinishi mumkinligi belgilangan.

¹ www.UzA. "Sud-huquq islohoti". Abduraimova N. 9-oktabr.2007-yil

² Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: "Adolat", 2002 .–17-b.

1.2 Respublikada mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini isloh qilish borasida qabul qilingan meyoriy hujjatlar.

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo‘nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir so‘z bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa bo‘lib qolmoqda. Aynan shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab islohotlarning mazkur yo‘nalishiga alohida e‘tibor qaratilgani bejiz emas. Ana shunday yondashuv tufayli bu boradagi ishlarning ko‘lami, miqyosi va samaradorligi keyingi o‘n yillikda nihoyatda kengayib, yangi bosqichga ko‘tarilganini ko‘p-ko‘p misollarda ko‘rish mumkin¹.

Sud hokimyatining tashkil etilishi va amal qilishi asoslarini belgilovchi bir qator qonunlarning qabul qilinishi so‘zsiz jamiyatni demokratlashtirish borasidagi jiddiy yutuqlar sirasiga kiradi. Ular jumlasiga O‘zbekiston Respublikasining “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonuni, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi Qonuni, Fuqarolik, Fuqarolik protsessual, Xo‘jalik protsessual, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari, Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeks va boshqa qonun hujjatlari kiradi². Sud hokimyatining yagonaligi sudyalarning mustaqilligi, sud korpusining shakllantirilishini belgilaydigan huquqiy qoidalar, shuningdek sudlar faoliyatini moliyalash va moddiy-texnika ta‘minoti masalalari ayni shu hujjatlarda bayon qilingan. Protsessual kodekslarda esa huquqiy demokratik davlat barpo etish sharoitida odil sudlovni amalga oshirish tamoyillari, xalqaro andozalarga muvofiq bo‘lgan sud ishlarini yuritish qoidalari:

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarning yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo‘shma majlisidagi ma‘ruza. 2010. 12 noyabr.

² Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A.va boshq. O‘zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: “Adolat”, 2002 .–4-b.

sud ishlarini yuritishda tortishuv, aybsizlik prezumsiyasi, protsesda tomonlarning tengligini va boshqa tamoyillar o'z aksini topdi¹.

Mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi sud tizimini yangilash, uni demokratlashtirish jarayoniga jiddiy turtki bo'ldi. Sudni hukmron byurokratiyaning qatag'onchilik qurolidan inson huquqlarini himoya qilishning ishonchli vositasi – huquqiy davlatning g'oyat muhim institutiga aylantirish birinchi navbatdagi vazifa bo'lib qoldi².

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida (11-modda) ilk bor hokimyat bo'linishi prinsipi mustahkamlab qo'yildi, unga ko'ra mamlakatda davlat hokimiyati bir-biridan mustaqil bo'lgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimyatiga bo'linadi³.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda adolatning muntazam salohiyatini ta'minlash uchun sud tizimi mavjud. Hozir mavjud davlatlarning Konstitutsiyalarida sud tizimi va uning faoliyatiga alohida o'rin berilgan. O'zbekiston Respublikasining 1992-yilgi Konstitutsiyasida ham 106-116-moddalar mahsus bobga ajratilib, sud tizimining asoslariga bag'ishlangan. O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimyatdan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustqil holda ish yuritadi⁴.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida sud hokimyatiga maxsus bob bag'ishlangan bo'lib, unda “sud hokimiyati” atamasi sud tizimini tashkil etilishi va sudlar faoliyatining tamoyillarini qamrab oladigan qator qoidalar orqali ochib beriladi⁵.

Mustaqil sud hokimiyatini amalga oshirish mexanizmini tartibga soluvchi va uning sudyalarni saylash, tayinlash hamda ularni vazifasidan ozod qilish tartibi,

¹ Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A.va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: “Adolat”, 2002. –17-b.

² Karimov I.A. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muhim vazifalari. Milliy davlatchilik, istiqlool mafkurasi va huquqiy madaniyat to'g'risida. - T. IIV Akademiyasi, 1999. -382-b.

³ Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: “Adolat”, 2002. –5-b.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 106-modda.- T.,2013.-32-b.

⁵ Umarova Sh.O. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurishda sud hokimyatining o'rni. - T., 2005. - 60-b.

sud ishlarini ko'rishda aralashganlik uchun javobgarlik va hokazolarning asosiy kafolati hisoblangan «Sudlar to'g'risida»gi Qonun 1993-yil 2-sentabrda Oliy Kengashning XIII sessiyasida qabul qilindi. Ilgariroq 1992-yil 10-dekabrda Oliy Kengashning XI sessiyasida qabul qilingan «Prokuratura to'g'risida»gi Qonun uning sud bilan butunlay yangi sharoit va talablar doirasidagi o'zaro munosabatlarini belgilab bergan edi. Jinoyat protsessual, Xo'jalik protsessual va Fuqarolik protsessual to'g'risidagi qonunlar qabul qilinib, ularda sud mustaqilligi tamoyillari, taraflarning tengligi, sud ishlarini yuritishda tortishuv va odil sudlovning boshqa demokratik me'yorlari mustahkamlandi¹.

1993-yil 6-mayda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Qonun O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining faoliyatini tashkil qilish masalalariga bag'ishlangan ilk hujjat edi².

1994-yilning sentabrda qabul qilingan 1995-yil 1-apreldan boshlab kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi qonunchilikni ta'minlashda katta ahamiyat kasb etdi va u davlatimiz sud-huquq tizimini qayta qurishga muhim qadam bo'ldi³.

O'tgan tarixan qisqa davrda sud hokimiyatini mustahkamlash, sud islohotlarini izchillik bilan o'tkazish masalalari hamisha davlat rahbarining diqqat markazida bo'lib keldi. Jumladan, Oliy Majlisning 1995-yil 24-fevralda bo'lib o'tgan birinchi chaqiriq, birinchi, 1995-yil 21-dekabrda to'rtinchi va 1996-yil 28-avgustdagi oltinchi sessiyalarida sud hokimiyati uchinchi, mustaqil va qaram bo'lmagan tarmoq ekanligiga, odil sudlov tizimini kengaytirish va demokratiyalashtirish lozimligiga e'tibor berildi⁴.

¹ Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: "Adolat", 2002. –17-b.

² Umarova Sh.O. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurishda sud hokimiyatining o'rni. - T., 2005. - 12-b.

³ O'sha manba. 83-b.

⁴ Jo'rayev N, Fayzullayev T. Mustaqil O'zbekiston tarixi 3-kitob. - T., 2009. - 225-b.

Sud-huquq islohotlari oldida turgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida 1995-yil 30-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahriri qabul qilindi¹.

O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi, “Advokatura to‘g‘risida”gi, “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi shaxs huquqlarini ijro hokimiyati organlarining noqonuniy xatti-harakatlaridan himoya qilish borasida qo‘shimcha kafolatlar yaratish yo‘lidagi muhim qadam bo‘ldi².

Prezident I.Karimov 1996-yil 7-dekabrda Konstitutsiyaning to‘rt yilligiga bag‘ishlangan tantanalarda so‘zga chiqib, davlatda huquqiy tizim har qanday vaziyatda ham aniq ishlashi lozim ekanligini alohida ta’kidladi. Shuning uchun ham haqiqiy mustaqil, kuchli sud hokimiyati sudyalarning inijligi yoki yuqori mavqe istagi emas, balki u Konstitutsiyaning, barcha xalqning talabi hamda erkin demokratik jamiyatning o‘zaklaridan biridir³.

Jinoiy jazo choralari tayinlash masalasida ham jiddiy o‘zgarish yuz berdi. Oliy sudning 1993-yildan boshlab joylarda o‘tkazilgan tekshirishlar, Plenumlarda qabul qilingan tegishli qarorlar, xavfli jinoyatchilarga, uning tashkilotchilariga, jinoiy guruhlarining faol qatnashchilariga jazo tayinlash amaliyotini tubdan o‘zgartirish imkonini berdi. Og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar uchun jazo tayinlash ancha kuchaytirildi, natijada respublikada vaziyat yaxshilandi⁴.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi «Sudlar to‘g‘risida»gi Qonunning 4-moddasida qayd etilgan va o‘zlariga yuklatilgan hokimiyat vakolatlaridan kelib chiqqan holda so‘nggi yillarda o‘z faoliyatlarini Konstitutsiyada va boshqa qonunlarda hamda inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlarda bayon etilgan

¹ Jo‘rayev N/, Fayzullayev T. Mustaqil O‘zbekiston tarixi 3-kitob. - T., 2009. - 88-b.

² Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O‘zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: “Adolat”, 2002. –19-b.

³ www.gov.uz

⁴ Umarova Sh.O. O‘zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurishda sud hokimiyatining o‘rni. - T., 2005. - 84-b.

fuqarolarning huquq va erkinliklariga, korxonalar, muassasa va tashkilotlarning huquqlari hamda qonun bilan himoyalangan manfaatlariga rioya etilishini kafolatlash borasida qator tadbirlarni amalga oshirdi¹.

Umuman olganda, sudlarning jinoyat va fuqarolik ishlari bo'yicha o'tgan 2000-2006-yillar ichidagi ishlarning sifatini baholaydigan bo'lsak, bu ko'rsatkich ancha yaxshilandi. Sudlar dalillarni baholash masalasiga mas'uliyat bilan yondosha boshladilar. Ishlarni ko'rishda rasmiyatchilik, yuzaki yondashish, himoya huquqini buzish hollari kamaydi².

Mamlakatimiz tashqarisiga tovar moddiy boyliklarni olib chiqish tartiblarini buzish jamiyatimiz uchun katta xavf tug'dirishini, bozor iqtisodiyotiga va fuqarolarning manfaatlariga jiddiy zarar keltirishi e'tiborga olinib, ularni sudda ko'rish amaliyoti o'rganib chiqildi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Oliy sud 1993-yil 27-dekabrda Plenumida «Respublikadan tashqariga tovar moddiy boyliklarni olib chiqish va Respublikaga naqd pullarni olib kelish tartiblarini belgilovchi qonunlarni qo'llash to'g'risida» qaror qabul qilib, quyi sudlarga dasturiy ko'rsatmalar berdi³.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi 1994-yil 7-yanvarda Plenum o'tkazib, «Jinoyat uchun jazo tayinlash amaliyoti to'g'risida»gi masalani muhokama etdi va tegishli qaror qabul qildi. Unda jinoyat sodir etgan shaxslarga nisbatan qonun moddalarini qo'llash choralari ko'rildi⁴.

Mamlakatda iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi, ayniqsa qishloq xo'jaligida tub islohotlar, xo'jalik sudlari faoliyatini yanada takomillashtirishni talab qildi. 1996-yil 25-iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xo'jalik sudlari tarkibini takomillashtirish to'g'risida»gi Farmoni e'lon qilindi. Mazkur farmon asosida viloyat xo'jalik sudlari maqomida faoliyat ko'rsatuvchi Toshkent

¹ Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: “Adolat”, 2002. –20-b.

² Jo'rayev N, Fayzullayev T. Mustaqil O'zbekiston tarixi 3-kitob. T.:2009. 226-b.

³ Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: “Adolat”, 2002. –18-b.

⁴ Boydadayev M. O'zbekiston huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurilishi va boshqaruv tizimining shakllanishi hamda takomillashuvining huquqiy asoslari. – T.,- 2001.- 25-b.

shahar xo'jalik sudi tashkil etildi va xo'jalik sudlari sud ijrochilari instituti ta'sis etildi¹.

Uy-joy islohotini amalga oshirish bozor iqtisodiyotiga o'tishning muhim omillaridan biri ekanligi, uning maqsadi uy-joy bozorini vujudga keltirishga qaratilganligini e'tiborga olib, «Davlat uy-joy fondini xususiylashtirish to'g'risida»gi Qonunni qo'llashdagi ba'zi masalalar haqida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi 1994-yil 9-sentabrda bo'lib o'tgan Plenumida Qaror qabul qildi. Qabul qilingan qaror respublikada davlat uy-joy fondini xususiylashtirish jarayonini amalga oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2005-yil 1-avgustdagi «O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosini bekor qilish to'g'risida»gi hamda 2005-yil 8-avgustdagi «Qamoqqa olishga sanksiya berish huquqini sudlarga o'tkazish to'g'risida»gi farmonlari har bir sudya zimmasiga alohida mas'uliyat yuklashi ta'kidlanib, bu borada sudya kadrlarni tayyorlash va yagona sud amaliyotini shakllantirish mexanizmini barpo etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab chiqildi².

Jinoyat qonunchiligiga kiritilgan o'zgartish va qo'shimchalardan yana bir muhimi – yarashuv institutining qabul etilishi natijasida 2006-yilda 12,605 nafar shaxsga nisbatan 11,503 ta jinoyat ishi tugatilgan bo'lsa, bu institut amaliyotga joriy qilinganidan bugungi kunga qadar 54 mingdan ortiq shaxs jinoiy javobgarlikdan ozod etilib, «sudlangan» degan nomni ko'tarib yurishdan xalos bo'lgan³.

Toshkentda 2009-yil 25-26-iyun kunlari “O'zbekistonda sud-huquq islohotlari sohasidagi yutuqlar va uning istiqbollari” mavzuida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Ushbu anjuman O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi va Oliy xo'jalik sudi, Oliy sud huzuridagi Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot

¹Vohiov Z. “O'zbekiston Respublikasida hokimyat bo'linishi prinsipining amaliy ifodasi”. – T.:2000.-66-b.

² O'sha manba. 229-b.

³ Jo'rayev N., Fayzullayev T. Mustaqil O'zbekiston tarixi 3-kitob. - T., 2009. - 232-b.

markazi tomonidan Germaniyaning mamlakatimizdagi elchixonasi va Yevropa Kengashi huquqi orqali demokratlashtirish Venetsiya komissiyasi bilan hamkorlikda tashkil etildi¹.

Konferensiyada O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlari, Oliy sud, Oliy xo'jalik sudi, Bosh prokuratura, Adliya va Ichki ishlar vazirliklari, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, O'zbekiston Respublikasi advokatlar palatasi, Toshkent davlat yuridik instituti, xalqaro tashkilotlar hamda mamlakatimizda akkreditatsiyadan o'tgan diplomatik korpus vakillari, Bolgariya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Koreya Respublikasi kabi xorijiy davlatlar ekspertlari ishtirok etdi².

O'zbekiston Respublikasining "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonuni 2012-yil 19-sentabrdan kuchga kirdi³.

Toshkentda "Sud amaliyoti va odil sudlov standartlari: O'zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot" mavzusida xalqaro davra suhbatlari bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi huzuridagi Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazi tomonidan "Mintaqaviy muloqot" xalqaro tashkiloti (Sloveniya) bilan hamkorlikda tashkil etilgan tadbirda Oliy Majlis Senati a'zolari, Qonunchilik palatasi deputatlari, Oliy sud, jinoyat ishlari bo'yicha sudlar sudyalari, AQSh sudylar korpusi vakillari ishtirok etdi⁴.

Ma'lumki, "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" da ham aynan sud-huquq sohasidagi islohotlar samarasi haqida alohida gapirib o'tilgan. Unda yozilishicha, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi

¹ www.gov.uz

² O'sha manba.

³ Ortiqova S.Uz.A. muhбири "Odil sudlov samaradorligi yanada oshmoqda".25.10.2012.

⁴ www.gov.uz Sud amaliyoti va standartlari: O'zbekiston tajribasi va xalqaro amaliyot. 17.09.2013.

islohotlarning asosiy maqsadi – inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini samarali himoya qilishning eng muhim kafolati sifatida sud hokimyatining nufuzini mustahkamlash, sudlarning chinakam mustaqilligini ta'minlash, ularning insonparvar demokratik huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi rolini oshirishdir.

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yo'nalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir¹.

Konsepsiyada sud-huquq sohasini yanada demokratlashtirishda amalga oshirilishi belgilangan tashkiliy-huquqiy choralar:

1. “Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida”gi Qonunning yangi tahririni qabul qilish.
2. Sudga qadar ish yurituv bosqichida lavozimdan chetlashtirish va shaxsni tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi protsessual majburlov choralarini faqat sudyaning sanksiyasi asosida qo'llash tartibini o'rnaish.
3. Sud majlisida ish bo'yicha ayblov xulosasini o'qib eshittirish majburiyatini faqat prokuror zimmasiga yuklash.
4. Jinoyat protsessual kodeksidan sudning jinoyat ishi qo'zg'atishga doir vakolatini chiqarish.

2013-yil 13-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tarkibiga o'zgartishlar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori qabul qilindi². Unga ko'ra Oliy sud tarkibiga o'zgartirishlar kiritildi.

Bir so'z bilan aytganda mustaqillik yillarida sud hokimiyatini bosqichma-bosqich mustahkamlab borish, sudning mustaqilligini ta'minlash, uni sobiq tuzumda bo'lgani kabi qatag'on quroli va jazolash idorasi sifatidagi organ emas,

¹ Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarning yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010. 12-noyabr.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Raisi I.Sobirov Toshkent shahri, 2013 yil 13 dekabr.

balki inson va fuqaro huquq va erkinliklarini ishonchli himoya va muhofaza etishga xizmat qiladigan tom ma'nodagi mustaqil davlat institutiga aylantirishga qaratilgan keng ko'lamli tashkiliy-huquqiy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Hokimiyatlar bo'linishiga oid konstitutsiyaviy prinsipni izchil amalga oshirish maqsadida "Sudlar to'g'risida"gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi, shuningdek, bu davrda jinoyat-protsessual, fuqarolik-protsessual qonunchiligiga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. Bu esa o'z navbatida sud tizimini ijro etuvchi hokimiyat organlari nazorati va ta'siridan chiqarish imkonini berganini alohida ta'kidlash lozim. Ayni paytda sudyalik lavozimiga nomzodlarni taqdim etish, sudyalarning vakolatini to'xtatish va muddatidan oldin tugatish, ularga nisbatan intizomiy ish yurituvni qo'zg'atish vazifalari Adliya vazirligi vakolatidan chiqarilgani ham bu borada muhim qadam bo'ldi.

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING SUD-HUQUQ TIZIMI VAZIFALARI

2.1 O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilish jarayonida sud-huquq tizimining o'rni

Ma'lumki, qonun ustuvorligi demokratik huquqiy davlatning zaruriy shartidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga ko'ra "Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar"¹.

Qonuniylik deganda barcha davlat va nodavlat organlari hamda tashkilotlarning, mansabdor shaxslar va fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlar va ularga muvofiq keladigan boshqa meyoriy hujjatlar talabiga og'ishmay amal qilishi va ijro etishi tushuniladi².

Konstitutsiya va qonunlar asosida yashash, ularga amal qilish kundalik turmushdagi doimiy faoliyat hisoblanadi. Deyarli barcha munosabatlar ular orqali amalga oshiriladi va ularga og'ishmay amal qilish jamoat tartibini, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlaydi. Qonunlarga amal qilmaslik va qonun talablari buzilgan hollarda davlat o'zining huquqini himoya qilish funksiyasini sud hokimiyati orqali amalga oshiradi, boshqacha qilib aytganda munosabatlarning umummajburiy xususiyatidagi qonunlarga asosan tartibga solinishini ta'minlaydi. Sudning vazifasi ayni ana shu funksiyasi bilan ta'rif va tavsiflanadi. "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 2-moddasida sudning vazifalari mufassal va lo'nda belgilangan bo'lib, unga ko'ra "Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini

¹ Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: "Adolat", 2002. –50-b.

² Mingboyev U. Insonparvarlik – odil sudlovning maqsadidir. Qonun nomi bilan. 1999. 3-son 4-b.

ta'minlashga qaratilgandir"¹.

Sudning qonuniylikni ta'minlashdagi ishtiroki uning nazorat funksiyasi orqali amalga oshiriladi. Binobarin, sud avvalo o'zi qonunlarga og'ishmay amal qiladi, qolaversa boshqa hokimyat organlarining qonunlarga amal qilishi ustidan nazorat olib boradi. Bu esa hokimyatlarning tengligi va ularning "o'zaro bir-birini tiyish hamda muvozanatni saqlash tizimi" haqidagi nazariyalarga mos bo'lib, biz quyida sud hokimyatining nazorat funksiyasiga batafsilroq to'xtalamiz.

Qonun chiqaruvchi hokimyat ustidan sud nazorati – bu qonunlar va boshqa normativ hujjatlarning Konstitutsiyaga mosligi yuzasidan Konstitutsiyaviy sud nazorati bo'lib, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi orqali amalga oshiriladi². Konstitutsiyaviy sudning nazorat va sudlov huquqi rasmiy qabul qilingan normativ hujjatlarga nisbatan tatbiq etiladi. Konstitutsiyaga xilof deb topilgan qonunlar va boshqa normativ hujjatlar qabul qilingan paytdan boshlab yuridik kuchga ega bo'lmagan, deb hisoblanadi. Konstitutsiyaviy sudning qarorlari qat'iy va ular ustidan shikoyat qilish mumkin emas (Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari va maqomi to'g'risida ushbu Bitiruv malakaviy ishimizning 1-bobida to'xtalgan edik). Hozirgi vaqtda Konstitutsiyaviy sud qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimyatlar hujjatlarining, shuningdek mahalliy davlat organlari hujjatlarining konstitutsiyaviyligini tekshirish yuzasidan o'z vakolati doirasida tahliliy ishlar ham olib bormoqda³.

Ijro hokimiyati o'zining vakolati doirasida qonunlar va boshqa normativ hujjatlarning ijrosini ta'minlaydi. Fuqarolar o'z huquqlari va majburiyatlarini amalga oshirish jarayonida bevosita ijro hokimiyati organlari bilan munosabatga kirishadilar yoki ijro hokimiyati organlari zimmasidagi vazifalarni amalga oshirish jarayonida shaxslarning muayyan huquq va majburiyatlariga ta'sir ko'rsatadilar. Ana shu munosabatlar jarayonida kimningdir huquqi buzilsa, ana shu buzilgan

¹ Umarova Sh.O. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurishda sud hokimyatining o'rni. - T., 2005. - 53-b.

² O'sha manba. 130-b.

³ Polvonzoda A.A., Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: "Adolat", 2002. –58-b.

huquqni sud orqali tiklash imkoniyatining kafolatlanganligi – bu huquqiy davlatning muhim belgilaridan biridir. Boshqacha qilib aytganda, ijro hokimyatining har qanday noqonuniy xatti-harakati (harakatsizligi) ustidan hech bir moneliksiz sudga murojaat qilish imkoniyati – bu erkinlikning zaruriy shartidir¹.

“Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to’g’risida”gi O’zbekiston Respublikasining Qonuni ana shu erkinliklarni ta’minlashga qaratilgan. Qonunning 1-moddasiga ko’ra har bir fuqaro davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalari, fuqarolarning o’zini-o’zi boshqarsih organlari yoki mansabdor shaxslarning g’ayriqonuniy hatti-harakatlari (qarorlari) bilan o’z huquqlari yoki erkinliklari buzilgan deb hisoblasa, shikoyat bilan sudga murojaat qilishga haqli. Fuqaroning yuqoridagi normaga asosan muayyan organ yoki tashkilot yoxud mansabdor shaxsning xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan shikoyat sud tomonidan fuqaroviy sudlov ishlarini yuritish qoidalari asosida ko’rib chiqiladi².

Oliy sud faoliyatida kelib tushayotgan shikoyat va arizalar bilan ishlash alohida o’rin tutadi. Birgina 2000-yilning o’zida O’zbekiston Respublikasi Oliy sudiga 13 mingdan ko’proq shikoyat va arizalar kelib tushgan bo’lib, shundan 9 mingtasi jinoyat ishlari bo’yicha berilgan³.

Quyi bosqich sudlari ishining sifati, ular qabul qiladigan sud qarorlarining asoslantirilganligi, qonuniy va adolatli bo’lishini ta’minlashga Oliy sud doimo diqqat-e’tibor berib kelmoqda. Eng muhim toifa nizolar, huquqbuzarliklar va jinoyatlarga oid sud ishlari muntazam o’rganib va muhokama etib boriladi. Masalan, 2002-yil davomida sud qarorlarining O’zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan nazorat tartibida bekor qilinishi Toshkent shahar sudlari bo’yicha 87, Samarqand viloyati bo’yicha 35, Andijon viloyati bo’yicha 31, Toshkent viloyati

¹ Husanov O.T. “O’zbekiston Respublikasining davlat organlari”. O’quv qo’llanma. - T.:Sharq, 1996. - 68-b.

² Umarova Sh.O. O’zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurishda sud hokimyatining o’rni. - T., 2005. - 128-b.

³ Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O’zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: “Adolat”, 2002 .-66-b.

bo'yicha 24, Qashqadaryo viloyati bo'yicha 21, Surxandaryo viloyati bo'yicha 18, Jizzax viloyati bo'yicha 17, qolgan viloyatlar bo'yicha 7-10 ta ishni tashkil etdi¹.

Sud-huquq tizimini isloh qilish, sudlarning haqiqiy mustaqilligi va erkinligini ta'minlash g'oyasini ilgari surar ekan, Prezident I.Karimov jinoiy va protsessual qonunchiligimizning dastlabki tergov va sudgacha bo'lgan jarayon ustidan sud nazoratini o'rganish borasidagi vazifalarni quyidagicha belgilaydi: "Boshqa demokratik davlatlar kabi O'zbekistonda ham shaxsni ushlab turish, xibsga olish, shuningdek, boshqa protsessual majburiy choralarni qo'llash uchun sanksiya berish huquqlarini ham sudlarga o'tkazish kerak, deb o'ylaymiz"².

Mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish, mazkur sohada sud faoliyatini liberallashtirish bo'yicha ham keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilganini ta'kidlash lozim. Bu borada "Xabeas korpus" institutining joriy etilishi, ya'ni 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilishi prinsipial qadam bo'ldi. Ushbu qarorning o'z vaqtida va puxta o'ylab qabul qilingani bugungi kunda ko'pgina amaliy misollarda o'z isbotini topmoqda. Mazkur institutning amaliyotga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu institut joriy etilgan 2008-yilning yanvaridan buyon sudlar tomonidan dastlabki tergov organlariga 700 martadan ortiq holatda mazkur ehtiyot chorasini qo'llash rad qilingani ham buni yaqqol tasdiqlab turibdi³.

Sudlovga tegishli ishlarning dastlabki bosqichlaridanoq sud nazorati o'rnatilishi ko'pgina rivojlangan davlarda o'rin olgan taomildir. Masalan, AQSH jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko'ra, "Tergovni boshlash uchun prokuratura organi suddan ruxsat olgan bo'lishi kerak.

Faqat sudya tomonidan berilgan order asosida shaxsni hibsga olish yoki

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi rayosatining qarori №4 pr-03-03,31 yanvar.

² Karimov I.A. Bizning maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. Xalq so'zi. 29-yanvar. 2005-yil.

³ www.gov.uz

uning uyida tintuv o'tkazishni amalga oshirish mumkin.

Shaxsga biron-bir aybnoma e'lon qilinishi bilanoq sudyaning huzuriga dastlabki tinglovga olib boriladi va shu tinglov jarayonida sudya mazkur shaxsni ozodlikdan mahrum etish masalasini hal qiladi. Sudning hukmigacha bu shaxs ozodlikda bo'lish huquqiga ega bo'ladi"¹.

Bizning huquqshunoslarimiz ham ana shu tajribaning ayrim jihatlarini qonunchiligimizga joriy qilish zaruratini sezilganligi sababli yuqoridagi sud islohotlarini amalga oshirish zaruratini o'rta tashladilar. Tarixga bir nazar salsak, huquqshunos P.Boymuradov qamoqqa olish taklifini ilgari suradi. Uning fikricha, gumon qilinuvchi yoki sudlanuvchiga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash to'g'risida tergovchi qabul qilgan qaror asosida prokuror sudga taqdimnoma kiritishi lozim. Sud esa shaxsni qamoqqa olish masalasini sud majlisida, protses ishtirokchilari va taraflarning o'zaro tortishuvi asosida ko'rib, hal qilishi kerak².

“Bunday masalalarning sud majlisidan boshqa joyda hal etilishi shaxs huquqlarini himoyalash borasida orqaga chekinilgan qadam bo'ladi, tergov yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarni vaqtida aniqlash va oldini olish imkonini bermaydi. Ularning sudda ko'rilishi natijasida esa huquqiy islohotlarning dastlabki kunidan boshlab amalga oshirilgan say-harakatlarga qaramay, yechimini topmagan himoya huquqini ta'minlashga erishishning, odil sudlovni amalga oshirishning muhim sharti bo'lgan – taraflarning o'zaro tortishuvi prinsipini qo'llashning imkoniyatlari yaratiladi”³.

Demak, mamlakatimizdagi sud islohotlarining samarasi uchun o'zini mehnatini ayamagan jonkuyar huquqshunoslarimizning mehnatini ro'yobini bugun biz o'z ko'zimiz bilan ko'rib turibmiz.

Quyi sudlarning sudlov faoliyati yuzasidan yuqori sud nazorati. Sudning

¹ Po'latov B. AQSHning jinoyat protsessida davlat ayblovdchisining ishtirok etishi // Qonun himoyasida. 2002.9-10 son. - 38-b.

² Umarova Sh.O. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurishda sud hokimiyatining o'rni. - T., 2005. - 113-b.

³ Boymuradov P. Qamoqqa olish ustidan sud nazorati // Hayot va qonun. - 2001.4-son.-18-b.

qonuniylikning ta'minlashdagi ishtirokining eng muhim jihati shundaki, u hokimyatning qolgan ikki tarmog'i ustidan sud nazoratini o'rnatishdan tashqari quyi sud faoliyati ustidan yuqori sud nazoratini ham amalga oshiradi. Shu zayl quyi sudning odil sudlovni amalga oshirish jarayonida qonunlarga og'ishmay amal qilishi qonunda belgilangan tartibda yuqori sudlar tomonidan tekshirib boriladi¹.

Konstitutsiyaning 110-moddasida "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Qoraqalpog'iston Respublikasi oliy sudlari, viloyatlar, shaharlar, tumanlararo, tuman sudlari va harbiy sudlarning sudlov faoliyati ustidan nazorat olib borish huquqiga ega", deb ko'rsatilganligi bejiz emas, albatta.

Qonuniylikni ta'minlash maqsadida yuqori turuvchi sudlarning quyi sudlar faoliyati ustidan nazorat olib borishi muhim ekanligini e'tirof etgan holda, shuni ta'kidlash joizki, sudning o'ziga xos funksiyasi va xususiyatlari bu masalaga chuqurroq yondashishni talab qiladi. Tom ma'noda mustaqil, beg'araz va xolis hakamlik qilish uchun sud hech kimga tobe bo'lmasligi esa sudning haqiqiy mustaqil hokimyat ekanini tasdiqlaydi².

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, umumiy yurisdiksiya sudlarining yuqori turuvchi sudlardan mustaqil bo'lishi sud hokimyatining o'ziga xos xususiyatlaridan biri bo'lib, uning mustaqil hokimyat tarmog'iga aylanishining zaruriy shartidir. Sudlarning o'zidan yuqori turuvchi sudlar bilan munosabatlari tahliliga tayanib, bu masalada ham fuqarolik va jinoyat ishlari bo'yicha sudlar faoliyatga alohida-alohida to'xtalib o'tish maqsadga muvofiq ko'rindi³.

Fuqarolik Protsessual Kopdeksining 343-moddasida apelatsiya instansiya sudining vakolatlari berilgan bo'lib, bu moddaning 2-bandiga ko'ra sud ishini apelatsiya tartibida ko'rgach, o'z ajrimi bilan "ishni yangidan ko'rish uchun yubormasdan hal qiluv qarorini o'zgartirishga yoki butunlay yoki qisman bekor qilishga va yangi hal qiluv qarori chiqarishga haqli". Bunday vakolat, ya'ni yangi

¹ Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: "Adolat", 2002. –67-b.

² Boymuradov P. Qamoqqa olish ustidan sud nazorati // Hayot va qonun.2001.4-son.18-b.

³ O'sha manba.19-b.

hal qiluv qarori chiqarish vakolati ishni nazorat tartibida ko'ruvchi sudlarga ham berilishi Fuqarolik Protsessual Kopdeksining 361-moddasi, 5-bandida qayd etilgan¹.

Fuqarolik ijtimoiy munosabatlariga oid ishlar bo'yicha odil sudlovni amalga oshirish, ya'ni ishni mazmunan ko'rib hal etish qonunlarda birinchi instansiya sudlariga berilgan bo'lsa, bu sudlar ishlarni mazmunan hal etib, hal qiluvchi qarori chiqarsalar-u, apellatsiya instansiya sudi ham, kassatsiya va nazorat instansiya sudi ham birinchi instansiya sudining mulohazalarini noto'g'ri chiqarib, buning qarorini bekor qilib, o'zlari yangitdan boshqa hal qiluv qarori chiqarishi, tabiiyki birinchi instansiya sudining mustaqilligini chegaralaydi².

Apellatsiya, kassatsiya va nazorat instansiya sudlarining vakolatlari birinchi instansiya sudi moddiy va protsessual normani to'g'ri qo'llaganmi, yo'qmi degan savol to'g'risida bo'lmog'i va shu orqali qonuniylikni ta'minlamog'i lozim³.

Yuqori turuvchi sudlar birinchi instansiya sudlarini o'zlariga qandaydir darajada tobe sud deb qaramasa va quyi sudlarning shunday holga tushishlariga sabab bo'ladigan qonuniy asoslar bekor qilinsa, binobarin qonun hujjatlarining tegishli normalari o'zgartirilsa, turli instansiya sudlari faqat o'z vakolatlari bo'yicha farq qilsalar, nazarimizda fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarning mustaqilligi yanada kafolatlanadi⁴.

Konstitutsiyamizning 110-moddasi uchinchi qismini Oliy sud boshqa hamma quyi sudlar ko'rgan ishlarni nazorat tartibida ko'rishi mumkin, degan ma'noda tushunish to'g'ri bo'ladi. Bu qomusiy norma erkinroq talqin etilib, to'ldirish hamda rivojlantirish maqsadida "Sudlar to'g'risida"gi Qonunga (13-modda): "O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining tushuntirishlari sudlar tomonidan bajarilishini nazorat qiladi", degan

¹ Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: "Adolat", 2002. –64-b.

² Husanov O.T. "O'zbekiston Respublikasining davlat organlari". O'quv qo'llanma. T.:Sharq, 1996.71-b.

³ O'sha manba. - 73-b.

⁴ Umarova Sh.O. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurishda sud hokimiyatining o'rni. - T., 2005. - 136-b.

normaning kiritilishiga olib keldi. Biroq, bu normada, bizningcha, yuqori turuvchi sud o'z xohishiga ko'ra quyi sud faoliyatini doimiy nazorat qiladimi, yoki konkret ishlarni ko'rish jarayonidami degan savol ochiq qolgan. Natijada tuman sudlarining viloyat sudlari, viloyat sudlarining Oliy sud itoatidagi idoraga aylanib qolishiga olib kelib, quyi sudlar ishlarini mustaqil, faqat qonunga bo'ysunib ko'rish kerakligi haqidagi qomusiy normaning kuchi zaiflashgan¹.

Amaliyotda viloyat sudi sudyalari tomonidan tuman sudi sudyalarining sudlov faoliyatini vaqti-vaqti bilan tekshirib turishi va bu tekshiruvni "quyi sudlarga amaliy yordam" deb atalishi kabi holatlar mavjudki, bu tekshiruvlar natijasida ish bo'yicha manfaatdor taraflar tomonidan hech qanday shikoyat, protses bo'lmasa ham, yuqori turuvchi sudning "xohishi"ga ko'ra konkret nazorat tartibida ko'rish hollari uchraydi².

Oliy sud Plenumining qarorlari sudlar tomonidan bajarilishi mazkur sud (Oliy sud) tomonidan nazorat qilinishi yuqori sudlarga quyi sudlar ko'rgan jinoyat ishlarini, nazorat tartibida shikoyat yoki protest yozilgan yoki yozilmaganligidan qat'i nazar, tekshirish huquqini beradi va shunday amaliyot shakllangan.

Quyi sudlar faoliyatini yuqori sud tomonidan nazorat qilish huquqining joriy qilinishi quyi sudlarning huddi vazirlik yoki prokuraturaga o'xshab quyidan yuqoriga so'zsiz itoat qilishga majburlik holatiga olib keladi. Bunday sud, ayniqsa asosiy ishlarni birinchi bosqich tariqasida ko'radigan tuman sudlari viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga tobe bo'lib qoladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 1996-yil 19-iyul kungi plenumida ma'ruzachi yuqoridagi konstitutsiyaviy normani quyidagicha talqin etadi: "Har bir sudya mustaqil va protsessual jihatdan hech kimga tobe emas. Ammo bu mustaqillik qat'iy ravishda qonun doirasida bo'lishi lozim va bu sud rahbarlari tomonidan sudyalar ishini nazorat qilishni cheklamay, balki bunday nazoratni amalda qo'llashni taqozo etadi"³.

¹ Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: "Adolat", 2002. –64-b

² Umarova Sh.O. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurishda sud hokimiyatining o'rni. - T., 2005. -137-b.

³ Oliy sud axborotnomasi. - 1996. 3-4-son,34-b.

Ishda ishtirok etmagan, mazmunan tanishmagan rahbarning “maslahat” berishi va shu “maslahatga” quloq solmagan sudya ko’rgan ishni, shikoyat yoki protest yozilmagan bo’lsa ham, tekshirish huquqining mavjudligi quyi sudlarning mustaqilligini chegaralaydi, deb o’ylaymiz.

Bizning nazarimizda, ushbu muammoni yechimi shundaki, muammoni yuzaga keltirgan sharoitni oydinlashtirish, jumladan qonunchilikni takomillashtirish, sud tizimini jahon standartlariga mos, demokratik prinsiplar asosida isloh qilib borib, tom ma’nodagi qonuniylikni ta’minlashdagi o’rni hamda to’laqonli tarzda roli yanada mustahkamlanadi va kafolatlanadi.

2.2 Mustaqillik yillarida sud tizimining fuqarolar huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlari

Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga binoan har bir shaxsga o’z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g’ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi¹.

Konstitutsiyaning ushbu qoidasi umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlarga mos keladi. Xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 8-moddasida aytilgandek: “Har bir inson unga konstitutsiya yoki qonun orqali berilgan asosiy huquqlari buzilgan hollarda nufuzli milliy sudlar tomonidan bu huquqlarning samarali tiklanishi huquqiga ega”².

Shuni ta’kidlash joizki, fuqaroning sudga erkin va tenglik asosida murojaat qilishini ta’minlash muammosi hozirda kunda ko’pgina davlatlar orasida ko’ndalang bo’lib turgan global muammolardan biridir.

Odil sudga bimalol murojaat qilish va buzilgan huquqni sud orqali himoya qilishga doir masalalar barcha davlatlarning va xalqaro tashkilotlarning diqqat

¹ Umarova Sh.O. O’zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurishda sud hokimyatining o’rni. - T., 2005. - 114-b.

² Inson huquqlari bo’yicha xalqaro shartnomalar: to’plam. - T., 2004. - 32-b.

markazida bo'lib keladi. Chunki fuqarolarning sud himoyasida bo'lish huquqini amalda sud kafolatlashi lozim. "Sudga murojaat qilish huquqi sud buzilgan huquqni haqiqatda tiklashga qodir bo'lganda ma'no va mazmunga ega bo'ladi"¹.

O'zbekiston Respublikasida sudlarning fuqarolar huquqlarini himoya qilishdagi faoliyati tahlil etilganda, xususan quyidagi holat ko'zga tashlandi.

Joriy etilgan yangiliklar birinchi instansiya sudlari tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni o'z vaqtida tuzatish, sud faoliyatida sansalorlikka yo'l qo'yimaslikning muhim kafolatiga aylandi. Agar 2000-yilda sud xatolarining deyarli yarmi nazorat tartibida tuzatilgan bo'lsa, 2009-yil yakunlariga ko'ra, bunday holatlarning 85 foizdan ortig'i apellatsiya va kassatsiya tartibida bartaraf etilgan².

2000-yilda umumiy sudlanganlarning 47,2 % ga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo'lsa, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri – «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida»gi Qonun qabul qilingach, 2006-yilda bu ko'rsatkich atigi 28,7 foizni tashkil etgan. Boshqacha aytganda, 71,3 foiz sudlanganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazolar tayinlanib, ular oilasi, jamoasi bag'rida qolgan. Sodir etilgan iqtisodiy jinoyatlar oqibatida yetkazilgan zararining 33 milliard so'mdan ortig'ini ixtiyoriy ravishda qoplagan to'qqiz ming nafarga yaqin shaxsga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog'liq bo'lmagan jazo tayinlangan³.

2002-yil davomida fuqarolik ishlari bo'yicha birinchi bosqich sudlarida 119215 ta fuqarolik ishlari ko'rilgan. Bu esa 2001-yilda shu sudlarda ko'rilgan ishlarga nisbatan 11,2 foizga ko'pdir. Jami ko'rilgan ishlarning 96914 tasida hal

¹ Стецовский.Ю.И. Судебная власть. – Москва, 1999. - С.115.

² Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarning yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza. 2010. 12-noyabr.

³ Boydedayev M. O'zbekiston huquqiy davlat va fuqarolik jamiyat qurilishi va boshqaruv tizimining shakllanishi hamda takomillashuvining huquqiy asoslari. – T., 2001. - 34-b.

qiluvchi qarori chiqarilib, 90056 ta da'vo qanoatlantirilgan. Ko'rilgan ishlarning 2580 tasi mulk huquqi bilan bog'liq, 1553 tasi esa turar joy bilan bog'liq nizolardir¹.

2006-yilda umumiy yurisdiksiya sudlari tomonidan mamlakatimizda qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolatni ta'minlash, fuqarolarning haq-huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Fuqarolik ishlari bo'yicha sudlar tomonidan 420 mingdan ortiq ish ko'rib chiqilib, ularning 96 % bo'yicha da'vo talablari qanoatlantirilib, fuqarolar hamda tashkilotlarning buzilgan haq-huquqlari tiklangan va ularning foydasiga 26,2 milliard so'm moddiy, 3,6 milliard so'm ma'naviy zarar, shuningdek, respublika budjetiga 455,3 million so'm davlat boji undirilgan. Shu jumladan, tadbirkorlarning buzilgan huquq va qonuniy manfaatlarini tiklash yuzasidan 300 dan ortiq da'vo qanoatlantirilib, 40,3 million so'm moddiy va 24,8 million so'm ma'naviy zarar undirilgan².

Xususan, 2008-yilda prokurorlar tomonidan sudlarga ayblanuvchilar va gumon qilinuvchilarga nisbatan qamoqqa olish tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash haqida 16610 ta iltimosnoma kiritilgan. Ushbu iltimosnomaning 16338 tasi sudlar tomonidan qanoatlantirilgan, 248 tasi esa rad etilgan³.

Huquqni muhofaza qiluvchi organlarining odam savdosiga qarshi kurashish masalalarida mahalliy davlat hokimiyati organlari, tibbiyot va ta'lim muassasalari, nodavlat va notijorat tashkilotlar va keng jamoatchilik bilan yaqindan hamkorligi ta'minlanadi. Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish va ularni himoya qilish bo'yicha Respublika reabilitatsiya markazi tashkil etildi.

Amalga oshirilgan ishlar natijasida odam savdosi bog'liq jinoyatlarning fosh etilishi yaxshilandi. Agar 2007-yilda jami 382 ta bunday holat aniqlangan bo'lsa,

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi. Umumiy yurisdikdiya sudlarining 2002-yilgi faoliyati to'g'risidagi statistika ma'lumotlari to'plami. - T., 2002. - 71-b.

² Polvonzoda A.A, Abdumajidov G.A va boshq. O'zbekistonda sud hokimiyati: Islohotlar davri. – T.: “Adolat”, 2002. –50-b.

³ Sud faoliyatidan lavhalar // “Huquq”. №11. - 2009-yil 12-mart.

2008 yilda bu ko'rsatkich deyarli 2,5 baravarga oshib, 891 ta jinoyatni tashkil etgan¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 1-maydagi "O'zbekiston Respublikasida advokatura institutini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bilan belgilab sud-huquq islohotlarining bugungi kundagi eng muhim vazifasi fuqarolarning yuqori malakali yuridik yordamga bo'lgan talabini qondirish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Sud-huquq sohasida munosabatlarni tartibga soluvchi, xalqaro normalarga mos qonunchilik shakllandi va muntazam takomillashtirilmoqda. Keyingi besh yilda bu borada qariyb 60 tegishli qonun hujjatlari qabul qilindi. Bosqichma-bosqich islohotlar doirasida sudlar ixtisoslashtirildi, kassatsiya sudi² isloh qilinib, sud ishlarini qayta ko'rishning apellatsiya tartibi, yarashuv instituti joriy etildi, sud faoliyatining barcha bosqichlarida tomonlar tengligi ta'minlandi. Mamlakatimizda 2008-yilning 1-yanvaridan boshlab o'lim jazosi bekor qilindi, qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlarga o'tkazildi. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini insonparvarlik tamoyillariga muvofiqlashtirish jarayonida ko'plab jinoyatlar tasnifi o'zgartirildi, ularning qariyb 75 foizi ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan jinoyatlar toifasiga o'tkazildi³.

Jamiyatning barcha sohalaridagi erkinlashtirish va o'zgarishlar qatori sud-huquq sohasidagi islohotlarga ham asos slogan davlat rahbari I.A.Karimov tadqiqotimiz obyekti bo'lgan sohadagi islohotlar jarayonini tahlil qilar ekan, bu borada galdagi vazifalarni belgilaydi: "...Sudlarning ijro etuvchi hokimyat va eng avvalo joylardagi hokimlar va prokuratura organlari bilan o'zaro munosabatlarini tubdan qayta ko'rib chiqish fursati yetdi"⁴.

¹ Sud faoliyatidan lavhalar // "Huquq". №11. - 2009-yil 12-mart.

² Kassatsiya – fransuzcha so'z bo'lib, "buzish" degan ma'noni anglatadi. Sudlovda esa ko'rilgan fuqarolik ishlarini qayta ko'rish tushuniladi. Fuqarolik protsessual qonunchilikka kiritilgan kassatsiya tartibida ish yuritish institutining maqsadi ishni qaytadan to'raligicha, mazmunan ko'rmasdan faqat ishni shikoyat qilgan qismi bo'yicha moddiy protsessual huquqiy me'yorlarning to'g'ri tatbiq etilganini tekshiradi.

³ www.UzA.23-fevral.2012-yil.

⁴ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5-7. - T.:O'zbekiston, 1997. - 127-128-b.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 23-iyunda qabul qilingan "Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta'minlash bo'yicha tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarori ushbu chora-tadbirlarning mantiqiy davomi bo'ldi¹.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan sud-huquq sohasidagi islohotlar jarayonida xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganishga muhim ahamiyat berilmoqda. Jumladan, mazkur yo'nalishda O'zbekiston bilan Germaniya o'rtasida yaqin hamkorlik o'rnatilgan. Yaqinda Germaniya federal Adliya vazirligi huzuridagi Huquq sohasidagi xalqaro hamkorlik jamg'armasi taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi delegatsiyasi GFRda bo'ldi.

Tashrif davomida o'zbekistonlik yuristlar Germaniyaning prokuratura va sud organlari faoliyati bilan tanishib, nemis hamkasblari bilan uchrashuvlar o'tkazdilar.

Tashrif doirasida Kyoln shahri bosh prokuraturasida O'zbekistonda sud-huquq islohotlari hamda mamlakatimizda "Xabeas korpus" institutining joriy etilishi jarayonlariga bag'ishlangan davra suhbatlari bo'lib o'tdi².

Prezident Islom Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010-yil 12-noyabrda bo'lib o'tgan qo'shma majlisida «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi» ma'ruzasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar, jumladan sud-huquq sohasidagi islohotlar yangi bosqichining ustuvor yo'nalishlarini belgilab berdi³.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi advokatning professional faoliyatiga to'sqinlik qilish uchun ma'muriy javobgarlikni belgilovchi 197¹-moddasi bilan to'ldirilganligi advokatlik faoliyatining yana bir kafolati bo'ldi.

¹ www.UzA. "Islohotlardan maqsad – inson huquqlari himoyasini ta'minlash". 30.06.2009.

² Uz REPORT Axborot agentligi "O'zbekistondagi sud-huquq islohotlari germaniyalik yuristlar e'tiborida" 18.03.2009.

³ www.UzA. 6-Aprel.2011-yil

Jinoyat kodeksiga jinoyatlar to'g'risidagi arizalar, xabarlar va boshqa ma'lumotlarni qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish yoki ko'rib chiqish xizmat vazifalariga kiradigan mansabdor shaxsning jinoyatni hisobga olishdan qasddan yashirishi uchun jinoiy javobgarlikni belgilovchi yangi 241¹-modda kiritildi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek: "Bugun bizning huquqiy doktrinamiz mutlaqo yangicha, demokratik tamoyillarga asoslangan. U, eng avvalo, O'zbekiston Konstitutsiyasi talablariga ko'ra inson huquqlarining ustuvorligini ta'minlaydi. Inson himoyasining bosh subyekti bo'lib, uning hayoti va sog'ligiga suiqasd qilish og'ir jinouat hisoblanadi"².

Jinoyat ishlari bo'yicha sudlarning vazifasiga to'xtalib, Prezident I.A.Karimov to'g'ri ta'kidlaydi, "Sud bo'ldi, desa biz kimdir jazo oldi, deb tushunamiz. Sud bo'ldi, deganda, odamlar himoya qilindi, degan tushuncha qachon ongimizga singadi? Sud jazolovchi organdan oddiy odamlarning huquqlari ba manfaatlarini himoya qiluvchi organga aylanib, haqiqatdan ham mustaqil bo'lib qolishi lozim"³.

Bizningcha, jinoyat ishlarini ko'ruvchi sudlarning to'laqonli hokimyat bo'lib shakllanishidagi, "Oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga" aylanishidagi mavjud muammolarning, mamlakat bo'yicha oqlov hukmlari chiqarish kam darajada ekanligidadir balki.

¹ "Huquq" №11. 2009-yil 12-mart.

² Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida. Ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasidagi ma'ruza // Xalq so'zi. - 2001.30-avgust.

³ Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.5. - T.: O'zbekiston, 1997. - 127-128-b.

3-BOB. MAVZUNI AKADEMIK LITSEY VA KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA O'QITISHNING TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA METODIK TAVSIYALAR

3.1 “O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini takomillashuv tarixi” mavzusi bo'yicha dars ishlanma

Mavzu	O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini takomillashuv tarixi
--------------	--

1.1. Ta'lim berish texnologiyasining modeli.

Mashg'ulot vaqti – 2 soat	O'quvchilar soni 25-30 ta
Mashg'ulot shakli	Aralash dars
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1. Sud hokimyatini alohida tizim sifatida tashkil topishi hamda uning rivojlanish bosqichlari. 2. Sud-huquq tizimini isloh qilish borasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar. 3. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilish jarayonida sud-huquq tizimining o'rni. 4. Mustaqillik yillarida sud tizimining fuqarolar huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilgan chora tadbirlari.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini takomillashuv tarixi haqida yangi bilimlarga ega bo'lish.	
Pedagogik vazifalar: • Sud hokimyatini alohida tizim sifatida tashkil topishi hamda uning rivojlanish bosqichlari haqida tushuncha berish; • Sud-huquq tizimini isloh qilish borasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar bilan tanishtirish; • O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilish jarayonida sud-huquq tizimining o'rni haqida bilim berish; • Mustaqillik yillarida sud tizimining fuqarolar	O'quv faoliyati natijalari: • Sud hokimyatini alohida tizim sifatida tashkil topishi hamda uning rivojlanish bosqichlari haqida tushunchaga ega bo'ladilar; • Sud-huquq tizimini isloh qilish borasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar bilan tanishadilar; • O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilish jarayonida sud-huquq tizimining o'rni haqida bilim oladilar; • Mustaqillik yillarida sud tizimining fuqarolar huquqlarini himoya qilish

huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilgan chora tadbirlari haqida ma'lumot berish.	borasida amalga oshirilgan chora tadbirlari haqida ma'lumot oladilar.
<i>Ta'lim berish usullari</i>	Munozara, suhbat, "Tushunchalar tahlili", "Insert" ped texnologiyasi
<i>Ta'lim berish shakllari</i>	Ommaviy guruhlarda, yakka tartibda
<i>Ta'lim berish vositalari</i>	O'quv qo'llanma, proyektor, qo'shimcha adabiyotlar, tarqatma materiallar, slayd
<i>Ta'lim berish sharoiti</i>	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Og'zaki so'rov: savol-javob, tezkor so'rov

1.2. "O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini takomillashuv tarixi" mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorlov bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadini belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv topshiriqlarni ishlab chiqadi.	
1. O'quv mashg'ulotiga kirish (15 daqiqa)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi (1-ilova). 1.2. O'quvchilarni baholash mezonini bilan tanishtiradi (2-ilova). 1.3. Mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosda "Tushunchalar tahlili" ped texnologiyasini o'tkazib, o'quvchilar bilimlarini faollashtiradi (3-ilova).	Tinglaydilar. Tinglaydilar. Tinglaydilar, jadvalni to'ldiradilar.
2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)	2.1. Mashg'ulot rejasiga asosan mavzu qisqacha bayon etiladi (4-ilova). 2.2. Mavzu bo'yicha o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun insert ped texnologiyasi o'tkaziladi (5-ilova).	Tinglaydilar, yozib oladilar. O'quvchilar mustaqil ishlaydilar
3. Yakuniy bosqich	3.1. Mavzu bo'yicha o'quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beriladi.	Savollar beradilar.

(10 daqida)	3.2. O'quv faoliyati yuzasidan xulosa bildiradi. 3.3. Mavzular maqsadiga erishishdagi talabalar faoliyatini tahlil qiladi va o'zlashtira olmagan joylarini qayta o'qib chiqishni tavsiya etadi.	Tinglaydilar. Vazifani yozib oladilar.
-------------	--	---

1-ilova

Mavzu: O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini takomillashuv tarixi

1. Sud hokimyatini alohida tizim sifatida tashkil topishi hamda uning rivojlanish bosqichlari.
2. Sud-huquq tizimini isloh qilish borasida qabul qilingan meyoriy hujjatlar.
3. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilish jarayonida va fuqarolar huquqlarini himoya qilishda sud-huquq tizimining o'rni
4. Mustaqillik yillarida sud tizimining fuqarolar huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilgan chora tadbirlari.

O'quv mashg'ulotining maqsadi: O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini takomillashuv tarixi haqida yangi bilimlarga ega bo'lish.

O'quv mashg'ulotining natijasi: O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini takomillashuv tarixi haqida yangi bilimlarga ega bo'ladilar.

Talabalar bilimlarini baholash mezonlari

Mezonlar	Maksimal ball
Berilgan barcha topshiriqlarni “a’lo” darajada bajarishi va qo’shimcha yangi ma’lumotlar bilan boyitishi	5
Barcha topshiriqlarni bajarishi, faol isgtirok etishi	4
Mahg’ulot davomida mavzu mohiyatini tushunishi, o’rtacha bilimga egaligi	3
Mahg’ulotda passiv ishtirok etishi, mavzuning mazmun-mohiyatini tushunmaslik, topshiriqlarni talab doirasida bajara olmaslik	2--1

“Tushunchalar tahlili” ped. texnologiyasi

Mashg’ulotning o’tkazish tartibi:

- o’quvchilar mashg’ulotni o’tkazishga qo’yilgan talab qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar o’quvchilarga tarqatiladi.
- o’quvchilar tarqatma materiallarda mavzu bo’yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o’zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarning qanday tushungan bo’lsalar shunday) izoh yozadilar (yakka tartibda);
- O’quvchi tarqatma materiallarda mavzu bo’yicha berilgan tushunchalarni o’qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to’g’ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkon bo’lsa) tanishtiriladi;

- har bir o'quvchi to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarini aniqlaydilar, kerakli tushunchalarga ega bo'ladilar, o'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

Tushunchalar	Mazmuni
Qonun	
Sud	
Sud tizimi	
Konstituytsiya	
Oliy sud	
Harbiy sud	
Oliy xo'jalik sudi	

Tushunchalar	Mazmuni
Qonun	Mamlakatning oliy qonun chiqaruvchi mahkamasi (Oliy Majlis) yoki mamlakat aholisining bevosita xohish irodasi bilan (referendum orqali) qabul qilingan huquqiy hujjat.
Sud	Davlat hokimyatining odil sudlovni amalga oshirish huquqi berilgan yagona mahkamasi hisoblanadi.
Sud tizimi	Davlat hokimiyati tomonidan ularga berilgan vakolatlar hamda ular oldiga qo'yilgan vazifa va maqsadlarning yig'indisiga asoslangan sud mahkamalaridan iborat.
Konstituytsiya	Davlatning asosiy qonuni bo'lib, xalqning irodasi va manfaatlarini to'la ifoda etuvchi hamda ularning manfaatlarini ko'zlovchi ijtimoiy tuzumni mustahkamlashga xizmat qiladi.
Oliy sud	Fuqarolik, jinoiy va ma'muriy sudlov ishlarini yurgizish borasida O'zbekiston Respublikasi sud hokimyatining Oliy mahkamasi.
Harbiy sud	Umumiy sudlarga o'xshash sud ishlarini olib boruvchi hamda O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarida sud hokimyatini amalga oshirishga vakil qilingan sud hay'ati, shuningdek, harbiy hizmat ko'zda tutilgan qo'shinlar, harbiy jamlamalar va ijroiya hokimyat mahkamalarida ham faoliyat olib boradi.
Oliy xo'jalik sudi	Xo'jalik nizolarini hal etish sohasida sud hokimyatining oliy mahkamasi hisoblanadi.

Mavzuning qisqacha bayoni

1-masala. Sud hokimyatini alohida tizim sifatida tashkil topishi hamda uning rivojlanish bosqichlari

Mustaqillik yillarida O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotida yuz bergan o'zgarishlar o'z navbatida inson faoliyatining barcha sohalarida tegishli tub o'zgarishlar qilinishini, ijtimoiy qadriyatlar ustuvorligini qaytadan ko'rib chiqish zaruriyatini taqazo etdi.

Qonunlarimizni isloh qilish borasidagi ishlar juda katta ahamiyat kasb etadi. Biroq islohotlar muvoffaqiyatli tarzda amalga oshirilishi va yangi qonunlar xohlaganimizdek natijalarga olib kelishi uchun bosib o'tilgan yo'lni to'la aniqlash va idrok etish, o'z tariximizni anglab yetishimiz lozim. O'tmish, bugungi kun va kelajak – bir-biri bilan chambarchas bog'langan mushtarak ildizlar bo'lib, biz tarixga qanchalik ko'p murojaat qilsak, bugun va ertaga nimalar qilishimiz kerakligini yanada ko'proq tushuna boramiz.

Shu boisdan hattoki 80-yillarda ham o'zbek xalqiga nisbatan qatag'onning yangi to'liqlini avj oldirilganligi tasodifiy hol emas. Mash'um "Paxta ishi" bahonasida minglab aybsiz kishilar hibsga olindi. Gdlyan va Ivanovning jinoiy to'dasi ayollar va bolalarni ham ayab o'tirmay qamoqqa tashladi. O'shanda markaz tomonidan har taraflama do'mbira qilib chalingan "O'zbeklar ishi" to'g'risidagi uydurma paydo bo'ldi.

Ming bor shukurlar bo'lsinkim, mustaqilligimiz munosabati bilan respublikamiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan qo'llab-quvvatlabganligi sababli bu ishlar qayta ko'rib chiqildi, aybsiz hukm qilingan ming-minglab kishilar oqlandilar, qonuniylik tiklandi.

2-masala. Sud-huquq tizimini isloh qilish borasida qabul qilingan meyoriy hujjatlar.

Mamlakatimizni demokratik yangilashning bugungi bosqichdagi eng muhim yoʻnalishlaridan biri bu – qonun ustuvorligi va qonuniylikni mustahkamlash, shaxs huquqi va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga qaratilgan sud-huquq tizimini izchil demokratlashtirish va liberallashtirishdan iboratdir. Bir soʻz bilan aytganda, yurtimizda huquqiy davlat asoslarini yanada takomillashtirish va aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish biz uchun hal qiluvchi vazifa boʻlib qolmoqda. Aynan shuning uchun ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab islohotlarning mazkur yoʻnalishiga alohida eʼtibor qaratilgani bejiz emas. Ana shunday yondashuv tufayli bu boradagi ishlarning koʻlami, miqyosi va samaradorligi keyingi oʻn yillikda nihoyatda kengayib, yangi bosqichga koʻtarilganini koʻp-koʻp misollarda koʻrish mumkin.

Sud hokimiyatining tashkil etilishi va amal qilishi asoslarini belgilovchi bir qator qonunlarning qabul qilinishi soʻzsiz jamiyatni demokratlashtirish borasidagi jiddiy yutuqlar sirasiga kiradi. Ular jumlasiga Oʻzbekiston Respublikasining “Sudlar toʻgʻrisida”gi Qonuni, “Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi toʻgʻrisida”gi Qonuni, Fuqarolik, Fuqarolik protsessual, Xoʻjalik protsessual, Jinoyat va Jinoyat-protsessual kodekslari, Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeks va boshqa qonun hujjatlari kiradi.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda adolatning muntazam salohiyatini taʼminlash uchun sud tizimi mavjud. Hozir mavjud davlatlarning Konstitutsiyalarida sud tizimi va uning faoliyatiga alohida oʻrin berilgan. Oʻzbekiston Respublikasining 1992-yilgi Konstitutsiyasida ham 106-116-moddalar mahsus bobga ajratilib, sud tizimining asoslariga bagʻishlangan.

Oʻzbekiston Respublikasida sud hokimiyati qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimyatdan, siyosiy partiyalardan, boshqa jamoat birlashmalaridan mustqil holda ish yuritadi.

3-masala. O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat qurilish jarayonida sud-huquq tizimining o'rni.

Ma'lumki, qonun ustuvorligi demokratik huquqiy davlatning zaruriy shartidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasiga ko'ra "Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar".

Konstitutsiya va qonunlar asosida yashah, ularga amal qilish kundalik turmushdagi doimiy faoliyat hisoblanadi. Deyarli barcha munosabatlar ular orqali amalga oshiriladi va ularga og'ishmay amal qilish jamoat tartibini, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlaydi. Qonunlarga amal qilmaslik va qonun talablari buzilgan hollarda davlat o'zining huquqini himoya qilish funksiyasini sud hokimiyati orqali amalga oshiradi, boshqacha qilib aytganda munosabatlarning umummajburiy xususiyatidagi qonunlarga asosan tartibga solinishini ta'minlaydi. Sudning vazifasi ayni ana shu funksiyasi bilan ta'rif va tavsiflanadi. "Sudlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 2-moddasida sudning vazifalari mufassal va lo'nda belgilangan bo'lib, unga ko'ra "Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir"

Oliy sud faoliyatida kelib tushayotgan shikoyat va arizalar bilan ishlash alohida o'rin tutadi. Birgina 2000-yilning o'zida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga 13 mingdan ko'proq shikoyat va arizalar kelib tushgan bo'lib, shundan 9 mingtasi jinoyat ishlari bo'yicha berilgan.

Quyi bosqich sudlari ishining sifati, ular qabul qiladigan sud qarorlarining asoslantirilganligi, qonuniy va adolatli bo'lishini ta'minlashga Oliy sud doimo diqqat-e'tibor berib kelmoqda. Eng muhim toifa nizolar, huquqbuzarliklar va jinoyatlarga oid sud ishlari muntazam o'rganib va muhokama etib boriladi. Masalan, 2002-yil davomida sud qarorlarining O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi tomonidan nazorat tartibida bekor qilinishi Toshkent shahar sudlari bo'yicha 87, Samarqand viloyati bo'yicha 35, Andijon viloyati bo'yicha 31, Toshkent

viloyati bo'yicha 24, Qashqadaryo viloyati bo'yicha 21, Surxandaryo viloyati bo'yicha 18, Jizzax viloyati bo'yicha 17, qolgan viloyatlar bo'yicha 7-10 ta ishni tashkil etdi.

Sud-huquq tizimini isloh qilish, sudlarning haqiqiy mustaqilligi va erkinligini ta'minlash g'oyasini ilgari surar ekan, Prezident I.Karimov jinoiy va protsesseual qonunchiligimizning dastlabki tergov va sudgacha bo'lgan jarayon ustidan sud nazoratini o'rganish borasidagi vazifalarni quyidagicha belgilaydi: "Boshqa demokratik davlatlar kabi O'zbekistonda ham shaxsni ushlab turish, xibsga olish, shuningdek, boshqa protsessual majburiy choralarni qo'llash uchun sanksiya berish huquqlarini ham sudlarga o'tkazish kerak, deb o'ylayman".

Mamlakatimizda o'tgan davr mobaynida dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish, mazkur sohada sud faoliyatini liberallashtirish bo'yicha ham keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilganini ta'kidlash lozim. Bu borada "Xabeas korpus" institutining joriy etilishi, ya'ni 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilishi prinsipial qadam bo'ldi. Ushbu qarorning o'z vaqtida va puxta o'ylab qabul qilingani bugungi kunda ko'pgina amaliy misollarda o'z isbotini topmoqda. Mazkur institutning amaliyotga tatbiq etilishi insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari, uning daxlsizligini himoya qilishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu institut joriy etilgan 2008-yilning yanvaridan buyon sudlar tomonidan dastlabki tergov organlariga 700 martadan ortiq holatda mazkur ehtiyot chorasini qo'llash rad qilingani ham buni yaqqol tasdiqlab turibdi

4-masala. Mustaqillik yillarida sud tizimining fuqarolar huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlari.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga binoan har bir shaxsga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g'ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.

Joriy etilgan yangiliklar birinchi instansiya sudlari tomonidan yo‘l qo‘yilgan xatolarni o‘z vaqtida tuzatish, sud faoliyatida sansalorlikka yo‘l qo‘ymaslikning muhim kafolatiga aylandi. Agar 2000-yilda sud xatolarining deyarli yarmi nazorat tartibida tuzatilgan bo‘lsa, 2009-yil yakunlariga ko‘ra, bunday holatlarning 85 foizdan ortig‘i apellatsiya va kassatsiya tartibida bartaraf etilgan.

2000-yilda umumiy sudlanganlarning 47,2 % ga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan bo‘lsa, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan sud-huquq tizimida olib borilayotgan islohotlarning muhim yo‘nalishlaridan biri – «Jinoiy jazolarning liberallashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat, Jinoyat-protsessual kodekslari hamda Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish haqida»gi Qonun qabul qilingach, 2006-yilda bu ko‘rsatkich atigi 28,7 foizni tashkil etgan. Boshqacha aytganda, 71,3 foiz sudlanganlarga nisbatan ozodlikdan mahrum qilish bilan bog‘liq bo‘lmagan jazolar tayinlanib, ular oilasi, jamoasi bag‘rida qolgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 23-iyunda qabul qilingan “Sud qonunchiligini demokratlashtirish va liberallashtirish hamda sud tizimi mustaqilligini ta‘minlash bo‘yicha tadqiqot markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori ushbu chora-tadbirlarning mantiqiy davomi bo‘ldi.

Bizningcha, jinoyat ishlarini ko‘ruvchi sudlarning to‘laqonli hokimyat bo‘lib shakllanishidagi, “Oddiy odamlarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiluvchi organga” aylanishidagi mavjud muammolarning, mamlakat bo‘yicha oqlov hukmlari chiqarish kam darajada ekanligidadir balki.

Insert pedagogik texnologiyasi

Insert jadvalining tuzilishi va uni to'ldirish qoidasi bilan tanishadilar.



Insert jadvali:

-ma'lumotlarni sistemalashtirishni (mustaqil o'qish / ma'ruza eshitish jarayonida olingan), uni tasdiqlash, aniqlashtirish yoki rad etsih; qabul qilinayotgan ma'lumotning tushunarligini nazorat qilish, avval egallagan ma'lumotni yangisi bilan bog'lash qobiliyatlarini shakllantirishni ta'minlaydi;

O'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni indivudal holda sistemalashtiradilar; matnda qo'yilgan belgilar asosida jadval ustunlarini to'ldiradilar:

V – **“O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini takomillashuv tarixi”** mavzusi haqidagi bilimlarimga javob beradi;
 “–“ – mavzu yuzasidan bilimlarimga qarama-qarshi;

+ – mavzu haqidagi yangi ma'lumotlar;

? – mavzu haqidagi tushunarsiz (aniqlashtirish, to'ldirishni talab qiladi) ma'lumot.

V	+	–	?

3.2. Mavzuni akademik litsey yoki kasb-hunar kollejlarda o'tish yuzasidan metodik tavsiyalar

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchi-talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy

texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi-talaba asosiy figuraga aylanadi.

Innovatsiya (inglizcha *innovation*) - yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar-bu jamoa bo'lib fikrlash, o'zaro harakat qilmoq deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- o'quvchi - talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o'quvchi-talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

O'qituvchi va o'quvchi-talabaning maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning asosiy maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi-talabalarinnng bilim saviyasi, guruh harakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi. Masalan, natijaga erishish uchun balkim, kompyuter bilan ishlash lozimdir, balkim film, tarqatma material, chizma va plakatlar, turli adabiyotlar, axborot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchi-talabaga bog'liq.

O'qituvchi mahorati – bu bevosita pedagogik faoliyatni boshqarishning ustasi hisoblanadi. Shunday ekan, halqimizda har bir ishning ustasi bo'lganidek o'qituvchi yoki rahbar mahorati ikki baravar ustalikni talab etadi. Rahbar mahoratida shaxs psixologiyasini, ta'lim-tarbiya jarayonini yaxshi bilish muhim o'rin tutadi

O'qituvchi mahoratining asosiy obekti - bu inson. Ya'ni o'qituvchi o'quvchining shaxsiy ma'naviy hayotini shakllantiruvchidir. Bunda aql, his-tuyg'u, iroda, ishonch, ong, tafakkur yuqori darajada bo'lishi lozim.

Men O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimining takomillashuv tarixi mavzusini eksperiment tariqsida pedagogik amaliyotni o'tash davrida Toshkent turizm va biznes kollejida amalga oshirdim. Unda quyidagi ta'lim vositalari hamda pedagogik texnologiyalardan foydalandim: Munozara, suhbat, "Tushunchalar tahlili", "Insert" ped texnologiyasi, og'zaki so'rov: savol-javob, tezkor so'rov.

Natijada amalga oshirilgan dars jarayonida samaradorlikka erishildi sinfdagi barcha o'quvchilar darsda faol ishtirok etdi va barcha o'quvchilar reyting tizimi asosida baholandi, shuning uchun O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimining takomillashuv tarixi xususida testlar tuzib kelish xamda yirik taixiy sanalarda sodir bo'lgan voqealar haqida qisqacha ma'lumot tayorlab kelish kabilar uy vazifasi sifatida berildi.

O'zbekistonda mustaqillik yillarida sud-huquq tizimining takomillashuv tarixi mavzusi bo'yicha dars jarayonini amalga oshirishda ma'lumotlarni o'quvchilarga mukammal tarzda tushuntirib berishi uchun darsda samaradorlikka erishish maqsadida quydagilarga asosiy e'tiborni qaratsa o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan vazifalarni to'laqonli amalga oshirishida yuqori natijalarga erishishi mumkin.

- avvalambor, o'qituvchi tarixiy voqealarni batafsil o'zining jonli nutqi orqali bayon qilib berar ekan har bir tarixiy voqealarni tushuntirishda o'qitishning interfaol usullridan foydalanishi lozim.

- tarixiy voqealar haqida ma'lumot berishda voqealarni taqqoslash maqsadida sinfdagi o'quvchilarni ikki yoki uch guruhga bo'lib, pedagogik texnologiyalarni qo'llagan holda amalga oshirsa darsda samaradorlikka erishiladi.

- darsga ajratilgan soat inobatga olingan holda asosiy voqealar xususida qisqa va lo'nda ma'lumot berish kerak.

- ma'lumotlarni umumlashtirganda zamon bilan bog'lash maqsadga muvoffiq chunki o'quvchilar hozirgi tarixiy voqealar bilan taqqoslash imkoniyatiga ega bo'ladilar.

- tarixiy voqealarni o'quvchilar ongiga singdirish bilan ularda mehnatsevarlik, insonparvarlik, mehr va oqibat, g'urur, or-nomus, vijdon, umuminsoniy qadriyatlarning qadrlash ona yurtga nisbatan g'urur tuyg'ularini shakllantirishi maqsadga muvoffiq.

XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ishi orqali biz O'zbekistonda sud hokimyatining alohida tizim sifatida tashkil topishi hamda uning rivojlanish bosqichlari, respublikada mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini isloh qilish borasida qabul qilingan me'yoriy hujjatlar, huquqiy demokratik davlat qurilish jarayonida sud-huquq tizimining o'rni, mustaqillik yillarida sud tizimining fuqarolar huquqlarini himoya qilish borasida amalga oshirilgan chora tadbirlari masalalarini qisman tahlil qilishga harakat qildik.

O'zbekistonda sud hokimiyati ijtimoiy adolat, huquqiy tartib, qonun ustuvorligini ta'minlashga, Konstitutsiya darajasida mustahkam ifodasini topgan inson huquqlari, erkinliklarini va qonuniy manfaatlarini muhofaza etishga qaratilgan. Birlashgan Millatlar Tashkilotining yettinchi Kongressi tomonidan qabul qilingan xalqaro hujjat – "Sud organlari mustaqilligining asosiy prinsiplari" va boshqa xalqaro xujjatlarda belgilangan odil sudlovga oid demokratik prinsiplar mustaqil O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlab qo'yilgan. Ularning kafolati qator qonunlarda o'z aksini topgan.

Sud hokimyatning alohida tizimi sifatida tashkil topdi. Sud-huquq sohasidagi islohotlari ikki bosqichda amalga oshirildi. Sud-huquq sohasidagi islohotlarning birinchi bosqichi (1991-2000 yillar)da quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- ✓ jahon tajribasini hisobga olib, birinchi marta mamlakatimizda Konstitusiyaviy sud va xo'jalik sudlari ta'sis etildi;
- ✓ sud jarayonida ayblov va himoyani amalda tengligini ta'minlash va buning uchun advokatura mavqeini ko'tarishga qaratilgan tadbirlar ishlab chiqildi;
- ✓ Jinoyat Kodeksi va Jinoyat Protsessual Kodeksi, Ma'muriy Javobgarlik to'g'risidagi Kodeks, Fuqarolik Kodeksi, Fuarolik Protsessual Kodeksi, "Prokuratura to'g'risida"gi, "Sudlar to'g'risida"gi, "Advokatura

to'g'risida"gi, "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.

Sud-huquq sohasidagi islohotlarning ikkinchi bosqichi(2001-2010 yillar)da quyidagi ishlar amalga oshirildi:

- ✓ sudlar ixtisoslashtirildi, jinoiy jazolar liberallashtirildi, sudda ishlarni ko'rish muddatlari qisqartirildi;
- ✓ fuqarolik va jinoiy ishlarni ko'rib chiqishning apellyatsiya tartibi joriy etildi, kassatsiya tartibi isloh qilindi, sud qarorlari ijrosini ta'minlashni takomillashtirishning huquqiy mexanizmlari yaratildi;
- ✓ yangi tahrirdagi "Sudlar to'g'risida"gi, "Prokuratura to'g'risida"gi, "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi;
- ✓ Adliya vazirligi huzurida Sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy-texnika jihatidan va moliyaviy ta'minlash departamenti tashkil etildi.

O'zbekistonda o'tgan davr mobaynida dastlabki tergov bosqichida sud nazoratini kuchaytirish, mazkur sohada sud faoliyatini liberallashtirish bo'yicha ham keng ko'lamli chora-tadbirlar ko'rilganini ta'kidlash lozim. Bu borada "Xabeas korpus" institutining joriy etilishi, ya'ni 2008-yildan ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi prokurordan sudga o'tkazilishi prinsipial qadam bo'ldi.

Mustaqillik yillarida fuqarolar huquqlarini himoya qilish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Sud amaliyotiga yarashuv instituti joriy etildi. O'zbekiston Respublikasida o'lim jazosi jinoiy jazo turi sifatida bekor qilindi. Jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarni qamoqqa olishga sanksiya berish huquqi sudlar vakolatiga o'tkazildi.

2008-yilda "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bilan prokuror va

advokatning tengligi, sud faoliyatining barcha bosqichlarida o‘zaro tortishuv prinsipi belgilandi.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, sud mustaqilligining konstitutsiyada belgilab qo‘yilishining o‘zi uni hokimyatning kuchli, qaram bo‘lmagan tarmog‘iga aylanish uchun yetarli emas. Shuning uchun ham ijtimoiy munosabatlarning barcha sohasida bo‘lgani kabi sud-huquq sohasini tubdan isloh qilish borasida mamlakatimizda muayyan ishlar amalga oshirildi.

Ikkinchi chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining oltinchi sessiyasida mamlakat rahbari I.Karimov sud tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarga baho berib, haqli ravishda ta’kidlaganidek, “Shubhasiz hayotimizdagi barcha tarmoq va jarayonlarda amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlar qatorida huquqni muhofaza qilish sohasida ham joriy qilinayotgan islohotlar o‘zining samarasi va natijasini bera boshladi. Eng muhimi, bu islohotlar ijtimoiy hayot va davlat qurilishining demokratik davlat o‘zgarishlar yo‘lida bosqichma-bosqich amalga oshirilishi ta’minlandi. Lekin shu bilan birga shuni ta’kidlashimiz zarurki, ijtimoiy taraqqiyot odimlari, jamiyatimizda ro‘y berayotgan, uzoqni ko‘zlab amalga oshirilayotgan demokratik jarayonlar sud-huquq tizimiga joriy qilinayotgan islohotlarni tanqidiy baholab, ularni yanada chuqurlashtirishni va qat’iyatlilik bilan olib borilishini talab etmoqda¹”.

Shu bilan birga jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida, davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi sudning muhim o‘rni va rolini e’tiborga olib uni yanada demokratlashtirish zaruriyati nuqtai nazaridan hali qator ishlar amalga oshirilishi kerak, deb o‘ylaymiz.

Shuningdek, sud islohoti natijasida erishgan yutuqlarni e’tirof etgan holda hali sud hokimyatini odamlarning to‘la ishonchini qozonib, demokratik huquqiy davlatning huquqiy himoya funksiasini amalga oshirishga qodir, mustaqil va qaram

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi 2001-yil 9-son.

bo'lmagan hokimyat tarmog'iga aylantirish borasidagi izlanishlar davom ettirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari.

1. Karimov I.A. Istiqlol yo'li: muammolar, rejalar. –T.:O'zbekiston, 1992.
2. Karimov I.A. Buyuk kelajagimizning huquqiy kafolati. – T.:O'zbekiston,1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.:O'zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A. O'zbekistonning siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. – T.:O'zbekiston,1996.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T.:O'zbekiston,1996.
6. Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar – taraqqiyot omili. – T.:O'zbekiston,1996.
7. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. – T.:O'zbekiston,1996.
8. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi.T.:O'zbekiston, 1997.
9. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. – T.:O'zbekiston,1998.
- 10.Karimov I.A. Xavfsizlik va barqarorlik taraqqiyot yo'lida. – T.:O'zbekiston,1998.
- 11.Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T.:O'zbekiston, 1999.
- 12.Karimov I.A. Ozod va Obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. – T.:O'zbekiston.2000.
- 13.Karimov I.A. Adolat – qonun ustuvorligida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ikkinchi chqariq oltinchi sessiyasidagi ma'ruza // Xalq so'zi.2002.30-avgust.
- 14.Karimov I.A. Bizning maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir // Xalq so'zi. 29-yanvar.2005-yil.
- 15.Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.:Ma'naviyat. 2008.

16. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – T.: O'zbekiston, 2012.

II. Rasmiy va hujjatli materiallar hamda huquqiy hujjatlar.

1. “O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 31-avgustdagi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi. – T., 1991. 11-son.
2. “O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga Konstitutsiyaviy maqom berish haqida” O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 30-sentabrdagi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991.11-son.
3. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2013.
4. “O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 6-maydagi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993. 5-son.
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Xo'jalik sudi Plenumining “Sud hokimiyati to'g'risida” qarori. 1-son. 1996; 20-dekabr // Qonun nomi bilan. 1997. 1-2-son.
6. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar: to'plam. T.: 2004. 32-b.
7. “Sudlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri) // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2001. 1-2-son.

III. Maxsus adabiyotlar.

1. Azizxo'jayev A.A. Sovetlarning huquqni muhofaza qilish faoliyati. – T.: O'zbekiston, 1991.
2. Jo'rayev N., Fayzullayev T. Mustaqil O'zbekiston tarixi. 3-kitob. T.: 2009.
3. Odilqoriyev X.T. O'zbekistonning yangi konstitutsiyasi va hokimiyatlar bo'linish prinsipi. – T.: O'zbekiston, 1993.
4. Odilqoriyev X.T. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. – T.: Sharq. 2000.
5. Polvonzoda A. O'zbekistonda sud hokimiyati: islohotlar va boshqalar davri. – T.: Adolat. 2002.

6. Tajixanov B. Inson huquqlari va huquqiy davlat. – T.: O'z.R.IIV Akademiyasi.1999.
7. Tajixanov B. Inson huquqlari – oliy ijtimoiy qadriyat. – T.: O'z.R.IIV Akademiyasi.2002.
8. O'zbekiston Respublikasi – mustaqil davlat. – T.: Adolat, 1994.
9. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga sharh. – T.: O'zbekiston.1998.
10. Husanov O.T. O'zbekiston Respublikasining davlat organlari. O'quv qo'llanma. – T.: Sharq, 1996.
11. Husanov O.T. Davlat va huquq asoslari. Izohli lug'at. – Azizov X. T.:O'qituvchi. 1996.
12. Husanov O.T. Qonuniylik – huquqiy davlatning negizi. Huquqiy demokratik islohotlar. – T.: O'zbekiston,1997.
13. Kostetskiy V.A. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Izohli lug'at. – T.,2004.-107-b.
14. Стецовский.Ю.И. Судебная власть. Москва. 1999.С.115

IV. Ilmiy maqolalar.

1. Abdumajidov.G'. Sud-huquq islohoti – tarixiy zarurat // Hayot va qonun. 2000-yil. 5-6-son.
2. Bahriyev K. Demokratiya va sud hokimiyati // Hayot va qonun. 1997-yil. 12-son.
3. Bahriyev K. Sud hokimiyati va insonning odil sudlovga bo'llgan huquqi // Xo'jalik va huquq. 1999-yil.2-son.
4. Boboqulov S. Sudlar faoliyati boshqa davlatlar misolida // Hayot va qonun. 2000-yil. 11-12-son.
5. Boltayev A. Hokimyatlar bo'linishi mohiyati va islohot // Hayot va qonun. 1997-yil.3-son.
6. Boymuradov P. Qamoqqa olish ustidan sud nazorati // Hayot va qonun. 2001-yil.4-son.
7. Jumaboyev Q. Hokimyatlar bo'linishi demokratik tamoyil // Hayot va qonun. 1997-yil. 4-son.
8. Mingboyev U. Insonparvarlik – odil sudlovning maqsadidir // Qonun nomi bilan. 1999. 3-4-son.

9. Mustafoyev V. Sudlar mustaqilligi – qonun ustuvorligi mezonini // Xalq so'zi. 2002.27-sentabr.
10. Nomozov G. Sudning rahbari – qonun // Mohiyat.2002. 1-fevral.
11. Pirjanov G. Parlament islohoti va konstitutsiyaviy sud // Hayot va qonun. 2002. 6-son.
12. Po'latov B. AQSHning jinoyat protsessida davlat ayblovchisining ishtirok etishi //Qonun himoyasida. 2002.9-10 son.38-b.
13. Qurbonov A. Odil sudlovning mustaqil bosqichi // Hayot va qonun // 2001. 4-son.
14. Svetlana Ortiqova. “Odil sudlov samaradorligi yanada oshmoqda”.25.10.2012.
15. Shorahmedov Sh. Konstitutsiyaviy huquqlar va odil sudlar // Hayot va qonun.2002. 6-son.

V. Dissertatsiya va avtoreferatlar.

1. Boydadayev M. O'zbekiston huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati qurilishi va boshqaruv tizimining shakllanishi hamda takomillashuvining huquqiy asoslari. Yurid.fan.nomz....diss. avtoref. – T., 2001.
2. Husanov O.T. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va mahalliy davlat hokimiyati asoslari: huquqiy, tashkiliy masalalar va muammolar. Yurid.fan.nomz....diss. avtoref. – T., 2005.
3. Umarova Sh.O. O'zbekiston Respublikasida demokratik huquqiy davlat qurishda sud hokimyatining o'rni. Yurid.fan.nomz....diss. avtoref. – T., 2005.
4. Vohidov Z. O'zbekiston Respublikasida hokimyat bo'linishi prinsipining amaliy ifodasi. Yurid.fan.nomz....diss. avtoref. – T., 2005.

VI. Internet saytlar.

www.UzA

www.gov.uz

[www.uznet.net.](http://www.uznet.net)

[www.Ziyo.net.](http://www.Ziyo.net)

Tayanch so'zlar lug'ati

№	O'zbek tilida	Rus tilida	Ingliz tilida
1.	adolat	справедливость	justice
2.	boshqaruv	руководство	guide
3.	dars	урок	lesson
4.	davlat	государство	state
5.	erkin	свободный	free
6.	fuqaro	гражданин	citizen
7.	harbiy sud	военный суд	military court
8.	hokimiyat	власть	power
9.	hukmdor	правитель	governor
10.	huquq	право	law
11.	ijro etuvchi organ	исполнительный орган	executive
12.	inson huquqlari	права человека	human rights
13.	insonparvarlik	гуманизм	humanism
14.	islohot	реформа	reform
15.	javobgarlik	ответственность	responsibility
16.	jazo	наказание	punishment
17.	jinoyat	преступления	crime
18.	kodeks	кодекс	code, codex
19.	kollej	Колледж	college
20.	konstitutsiya	конституция	constitution
21.	liberallashtirish	либерализация	liberalization
22.	ma'muriy huquq	административное право	administrative divisions right
23.	mahalliy boshqaruv	местное управление	local administrative
24.	maktab	школа	school
25.	mamlakat	государство	country
26.	metod	метод	method
27.	mol-mulk	имущество	property
28.	mustaqillik	независимость	independence
29.	nizom	положение	position
30.	norma	норма	norm
31.	normativ hujjat	нормативные документы	
32.	o'g'rilik	воровство	theft
33.	o'qituvchi	учитель	teacher
34.	o'quvchi	ученик	pupil
35.	oliy sud	высший суд	superior court
36.	organ	орган	organ
37.	pedagogik eksperiment	педагогический эксперимент	pedagogical experiment
38.	prokuratura	прокуратура	prosecutor's office

39.	qamoq	тюрьма	prison
40.	qaror	постановление	resolution
41.	qonun	закон	law, act
42.	qonun chiqaruvchi organ	законодательный орган	legislature
43.	respublika	республика	republic
44.	shartnoma	договор	contract
45.	shaxs	личность	personality
46.	siyosiy hokimiyat	политический хакимят	political mayor's offic
47.	sud	суд	tribunal
48.	sud hokimiyati	судебная власть	judiciary
49.	sud ishlari	судебные дела	court cases
50.	sud jarayoni	судебный процесс	trial
51.	ta'lim	обучение	education
52.	tajriba-sinov	эксперимент	experiment
53.	taraqqiyot	развития	development
54.	texnologiya	технология	technology
55.	universitet	университет	university

ILOVALAR

Shariat qozisi (xalq sudi)







